

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKUL’TETI
O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

“403” guruhi talabasi

Oqyo‘lboev Islombek

**XVIII – asrning ikkinchi yarmi -XIX asrda Qo‘ng‘irotlar sulolasining Sharq
mamlakatlari bilan o‘zaro savdo aloqalari**

5120300–Tarix (jahon mamlakatlari bo‘yicha) ta’lim
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari: **Dots. S.A.Xoshimov.**

Andijon 2018

Reja

Kirish

1.Bob. Xiva qo'ng'irotlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti.

1.1. Xiva qo'ng'irotlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

1.2. Xiva qo'ng'irotlari sulolasining siyosiy tarixi.

2-bob Xonlikning qo'shni xonliklar va sharq davlatlari bilan olib borgan o'zaro elchilik va savdo aloqalari.

2.1 Xiva xonligining Buxoro va Qo'qon xonligi bilan olib borgan o'zaro savdo aloqalari.

2.2 Xonlikning Eron Hindiston va Afg'oniston bilan olib borgan savdo va elchilik aloqalari.

Xulosa.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.

Ilovalar

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishganligi o‘zbek xalqi hayotida buyuk tarixiy voqea bo‘ldi. Totalitar tuzumga asoslangan sobiq ittifoqning parchalanib ketganligi, O‘zbekistonning suvereniteti va davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi-o‘tgan ajdodlarimizning bir yarim asr davomida ushalmay kelgan asriy orzulari, ko‘pgina avlodlarning istiqlol yo‘lida to‘kkan qutlug‘ qonlarining natijasi, ularning xaq yo‘lidagi kurashining tantanasi bo‘ldi. Chor xukumati va so‘ngra qulab tushgan totalitar usul-idorasi davrini Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: «Chor Rossiyasi yurtimizni bosib olib to biz davlat mustaqilligimizning qayta tiklaganimizga qadar o‘rta hisobda 130 yil vaqt o‘tdi. Shu davr ichida xalqimiz boshiga ne-ne kulfatlar, baloyu ofatlar yog‘ilmadi. Xoh siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini olaylik, xoh ma’naviy, madaniy sohani. Bu davrning ilgarigi zamonlardan farqi shuki, shu vaqtda, ayniqsa sho‘rolar hukmronligi yillarida xalqimiz tashqi dunyodan butunlay uzib qo‘yildi»¹ deb izohlagan edi.

Mustaqillik sharofati bilan bu holatga barham berildi. Istiqlol yillarida o‘tmishda qolgan «kamchiliklar»ning salbiy ta’siri bartaraf etildi. Mustaqil O‘zbekiston jahonning nufuzli xalqaro tashkilotlari va mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy madaniy aloqalarni o‘rnatdi. Respublikamizning tashqi aloqalarini ta’minlaydigan davlat organlari tashkil etildi. Tashqi siyosat va diplomatiya sohasida juda ko‘p ishlar amalga oshirildiki, bu O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi va o‘z munosib o‘rnini topishi, nufuzini ortib borishiga qulay imkoniyat tug‘dirdi.

O‘zbek milliy diplomatiyasi tarixi O‘zbekiston tarixining o‘ta muhim va ajralmas tarkibiy qismidir. Hozirda mazkur masalani ilmiy asosda, xolisona yoritish respublikamiz tarixchi olimlarining dolzarb vazifalaridan biridir. Zero, o‘zbek milliy diplomatiyasining qadimgi davrlardan tortib to keyingi xonliklar

¹ Каримов. И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., «Шарқ» 1998, Б.18-19.

davrlarida erishgan yutuq va kamchiliklarini xolis o'rganish va taxlil etish asosida zarur saboqlar, nazariy xulosalar chiqarish nafaqat ilmiy, balkim muhim amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Mavzuning bugungi holatining tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'rilayotgan davrda Xiva xonligining qo'shni davlatlar bilan o'zaro olib borgan elchilik, savdo-sotiq va madaniy sohalaridagi aloqalari tarixini qisman o'z ichiga olgan ilmiy ishlar, adabiyotlar va maqololar mavjud. Biroq Xiva xonligining qo'shni Buxoro, Qo'qon xonliklari Shuningdek Eron, Hindiston, Afg'oniston va Rossiya bilan olib borgan diplomatik, siyosiy, savdo-sotiq va boshqa aloqalarining tarixi to'liq mukammal tarzda o'rganilmagan. Shu munosabat bilan ko'rilayotgan davrda Xiva xonligining Buxoro, Qo'qon xonliklari, Eron, Hindiston va Afg'oniston davlatlari bilan olib borgan o'zaro aloqalarida siyosat va diplomatiya, savdo-sotiq sohalarida erishgan muvaffaqiyatlari hamda yo'l qo'yilgan hato kamchiliklarini o'rganib chiqish zarurati yuzaga keladi. Mavzuning dolzarbligi ana shular bilan asoslanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ko'rilayotgan davrda Xiva xonligining qo'shni davlat bilan o'zaro elchilik, savdo-sotiq va madaniy sohadagi aloqalarida erishgan yutuqlarini hamda ba'zi xollarda diplomatik aloqalarida muvaffaqiyatsizlikka uchrashining sabablarini ko'rsatib berishga qaratilgan. Ishda ko'rilgan maqsad va vazifaga muvofiq quyidagi masalalarni ko'rib chiqish rejalashtirilgan.

Birinchidan, Xiva xonligining yon qo'shnilari Buxoro va Qo'qon xonligi bilan olib borgan o'zaro foydali savdo-sotiq aloqalarini tarixini ochib berish.

Ikkinchidan, xonlikning XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asrda Osiyo davlatlari jumladan Eron, Hindiston va Afg'oniston hududlarida xukmronlik qilgan sulolalar bilan olib borgan savdo-sotiq va elchilik aloqalari tarixini tahlil qilish.

Uchinchidan, ko'rilayotgan davrda Xiva-Rossiya munosabatlarini, ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalarini hamda diplomatik missiyalar faoliyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Mavzuning tadqiq qilinganlik darajasi. Tadqiqotning nazariy asosini Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning asarlari va mavzuga doir bildirgan fikr

hamda nutqlari¹ tashkil etadi. Hozirgi kunda davlatchilik tariximizning turli davrlarida faoliyat ko'rsatgan davlat uyushmalarining tashqi aloqalari va diplomatik munosabatlarini o'zida aks ettiruvchi kitoblar va maqolalar mavjud. Mintaqada qadimdan vujudga kelgan ilk diplomatik munosabatlarni «Avesto»² dan hamda Rtveladze E.V., Saidov. A. X., Abdullaev E. V larning «Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar» (T., Adolat, 2001) nomli asaridan ko'rish mumkin. Mazkur adabiyotlarda mintaqada amalga oshirilgan dastlabki diplomatik munosabatlar atroflicha taxlil qilingan.

Qadimgi davrlardan to Amir Temur va Temuriylar davrigacha bo'lgan davrda mintaqamizda amalga oshirilgan tashqi aloqalarni o'rganishda Karimov. Sh., Shamsutdinov R., Azamat Ziyo, Hamid Ziyoev va boshqalarning asarlari³ muhim ahamiyat kasb etadi. Diplomatiya tariximizning ma'naviy asoslarini o'rganishda Mannopov B ning maqolasi ham muhimdir. Xonliklar va Chor Rossiyasi bosqinidan keyingi davridagi elchilik aloqalari va savdo-sotiq masalalari 2000 yilda nashr etilgan «O'zbekistonning Yangi tarixi»⁴ birinchi kitobida keng va atroflicha berilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xiva xonligining Rossiya davlati bilan diplomatik, o'zaro savdo-sotiq aloqalari tarixiga doir bir qator ilmiy ishlar e'lon qilingan.⁵ Bu ilmiy tadqiqot ishlarida mualliflar Rossiya davlati bilan Turkiston xalqlarining, jumladan Xiva xonligining diplomatik aloqalari tarixini qadimgi

¹ Каримов. И. А. Ўзбекистон XXI аср бўса'асида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиё кафолатлари.-Т.. «Ўзбекистон», 1997; Ўша муаллиф. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.- Т.: Шарқ. 1998; Ўша муаллиф Озод ва обод Ватан, Эркин ва фаравон ҳаёт-пировард максадимиз. 8-жилд.-Т.: Ўзбекистон 2000; Ўша муаллиф. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. 9-жилд.-Т.: Ўзбекистон. 2001; Ўша муаллиф. Юксак маънавият - енгилмас куч. Т.: Маънавият 2008.

² Авесто. Яшт китоби. Т., «Шарқ», 2001.

³ Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. Биринчи китоб. – Т., «Ўқитувчи». 1997; Азамат Зиё. Ўзбек далаatchилик тарихи. –Т., «Шарқ»2000; Аҳмедов Б Тарихдан сабоқлар.-Т., «Ўқитувчи» 1994; Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи.-Т., «Шарқ» 2001.

⁴ Ўзбекистон янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида.-Т.: «Шарқ» 2000.

⁵ Зиёев Х.З. Сибирлик ўзбеклар (XVI аср XX асрнинг бошлари) –Т. : 1958; Ўша муаллиф Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI-XIX асрлар)-Т., 1962; Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (во второй половинѐ XIX столетия до первой мировой войнѐ). –Т.: 1959; Мухаммаджонов А, Неъматов Т.Н Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.-Т.: 1967; Неъматов Т. Хива ва Россия муносабатлари тарихидан (XIX асрнинг 20-50 йиллари), Т.: 1959; Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии (первие половине XIX века) М.: 1974; Гулямов Х. Г. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством в XVIII веке.-Т., 1992; С. Хошимов Туркистоннинг дипломатик алоқалари тарихидан «Фан турмуши» 1998. 2-сон, 22-23 бетлар.

davrlardan tortib to 1917 yilgacha bo'lgan davrlarini bir muncha xolisona yoritib, ana shu aloqalar tarixini ilmiy jihatdan o'rganishga katta xissa qo'shganlar. Mazkur asarlarda Rossiya bilan O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari, madaniy aloqalar, diplomatik aloqalar va ularning o'ziga xos tomonlari ham keng atroflicha yoritilgan. Biroq, bu asarlarda alohida holda Xiva xonligining Rossiya bilan olib borgan o'zaro aloqalari tarixi maxsus tadqiq qilinmaydi. Shuningdek, ko'rilayotgan davrda Xiva xonligining boshqa qo'shni davlatlar Buxoro, Qo'qon xonliklari, Eron, Hindiston va Afg'onistondagi mavjud davlatlar bilan olib borgan o'zaro aloqalarining ayrim tamonlariga doir bir qator ilmiy ishlar e'lon qilingan.¹ Ushbu asarlarda o'zaro aloqalarning ayrim jihatlari ochib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining taxmin va tavsifi shundan guvohlik beradiki, Vatanimiz tarixshunosligida Xiva xonligining qo'shni davlat Buxoro, Qo'qon xonliklari, Eron, Hindiston, Afg'oniston va Rossiya davlati bilan olib borgan o'zaro elchilik, savdo-sotiq, madaniy sohalaridagi hamkorliklariga doir yaratilgan asarlar, maqolalar va arxiv xujjatlarini jamlagan holdagi yagona tadqiqot xozircha yo'q. Xuddi mana shu hol magistrantni mazkur mavzuni tarixiy tadqiqot ob'ekti sifatida tanlab olishga undadi va shulardan kelib chiqib Xiva xonligining XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab XIX asr davomida qo'shni davlatlar bilan olib borgan o'zaro aloqalari masalasi magistrlik dissertatsiyasining mavzusi qilib belgilab olindi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy Yangiligi shundan iboratki, ish uchun tanlab olingan mavzu, uning tarkibiga kirgan qator muammolar to'liq, yaxlit holda maxsus tadqiq qilinmagan. Shu bois dissertatsiyada ana shu holat hisobga olinib hozirga qadar mavjud adabiyotlar, maqolalar, qo'lyozma asarlar, sayyohlar yozib qoldirgan mavzuga oid esdaliklar asosida tadqiq etilayotgan davr ichida Xiva xonligining qo'shni sharq davlatlari jumladan Buxoro, Qo'qon xonliklari, Eron, Hindiston va Afg'oniston bilan amalga oshirgan elchilik aloqalari, savdo-sotiq,

¹ Хаджаева Б.С.Сборник документов по истории Средней Азии XVI-XIX вв. Общественные науки в Узбекистане. 1993: №6 Стр 26-29.; Норкулов Н., Жўраев. Ў. Ўзбекистон тарихи. (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми)-Т., «Шарқ» 2001; Аллаева Н. Хива хонлигининг Эрон билан савдо алоқалари тарихидан. (XVI-XVIII асрлар). Ўзбекистон тарихи. 2007: 1-сон 67-73 бетлар.

o‘zaro bordi-keldi masalalari jamlangan holda maxsus ilmiy taxlil qilinmoqda. Mavzuga doir materiallar jamlangan holda birinchi bor tadqiq qilinmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Tadqiqotda tadqiq etilayotgan muammo-Xiva xonligining qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarning XVIII - asrning ikkinchi yarmi XIX asrdagi tarixi davrimizning yuksak, Yangi talablari va mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan yoritishga va taxlil etishga harakat qilindi. Muallifning bu sa’y-harakati O‘zbekistonimizning xonliklar davri tarixini yaratishda ozmi-ko‘pmi hissa bo‘lib qo‘shilishi mumkin. Ayni vaqtda mazkur tadqiqot o‘quv predmeti sifatida O‘zbekiston tarixining mazmunini boyitishga ham yordam beradi. O‘zbek milliy diplomatiyasining xonliklar davrida ham to‘plagan tajribalarini jumladan Xiva xonligida umumlashtirish birmuncha hozirgi kun uchun amaliy ahamiyati ham egadir. Chunki mustaqil O‘zbekistonning bugungi kundagi diplomatik aloqalarida qadimgi sharq jumladan o‘zimizning qadimda bu sohada to‘plagan boy tajribalardan unumli foydalanish joiz. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishi materiallaridan mutasaddi tashkilotlar va xodimlar o‘zlarining g‘oyaviy tarbiyaviy, ma’rifiy va targ‘ibot ishlarida elchilik aloqalari. Savdo-sotiq munosabatlari tarixini yoritishda ham keng foydalanish mumkin.

1.Bob. Xiva qo'ng'irotlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti.

1.1. Xiva qo'ng'irotlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

1510 yilda Shayboniyxon vafotidan so'ng Xorazm xududidan Eron shohi Ismoil tomonidan bo'ysundirildi. 1510-1512 yillarda Xorazmni Eron shohining noiblari idora qildilar. Ammo, 1512 yilda Xorazm hududlarida eroniylarga qarshi halq xarakatlari boshlandi. Ushbu harakatga Vazir shahrining (Ustyurtda, ko'xna urganchdan 60km uzoqlikda joylashgan bu shaharni XVasrda o'zbek xonlardan bo'lgan Mustafaxon barpo etgan) qozisi Umar Shayx boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar Xorazmning Vazir, Urganch, Xiva, Xazarasi shaharlaridagi eroniy noiblar va ularning qo'shinlarini qirib tashladilar.

1512 yilada Xorazmning obro'li shayxlaridan bo'lgan shayx ota avlodlari ko'chmanchi o'zbeklarning Berka sulton avlodidan bo'lgan Elbarsxonga maktub yo'llab, uni Xorazm taxtga taklif qildilar. Elbarsxon taxtga o'tirgach, eroniylarni mamlakat xududlaridan butunlay xaydab chiqarib, amalda mustaqil xonlikka asos soldi. U mamlakat xududlarini hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi, Eronning shimolidagi Seraxs viloyati, Mang'ishloq, Abulxon, Durun hisobiga ancha kengaytirildi. Ammo, o'zbek sultonlari va shaxzodalar o'rtasida siyosiy birlik yo'q edi. Tez orada ular o'rtasida hokimyat uchun o'zaro kurashlar avj olib ketdi. Ushbu kurashlardan foydalangan. Buxoro hukumdori Shayboniy Ubaydullaxon 1537 – 1538 yillarda, qisqa muddat Xorazmni egallashga muvaffaq bo'ldi. Mag'lubiyatga uchragan Avanishxon oilasi bilan Shayboniylar tomonidan qatl etildi¹.

Ubaydullaxonning hukumronligi uzoqqa cho'zilmadi. Ubaydullaxon zulmiga chiday olmagan xorazmliklar Anushaxonning borislari boshchiliga buxoroliklarga qarshi qo'zg'alon ko'tardilar. Ubaydullaxon 1538 yilda yana Xorazmga qo'shin tortdi. Xazarasi bilan Xiva shaharlari oralig'idagi Kardaronxos degan joyda Buxoro qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Shayboniylardan ozod

¹ Б.Эшов. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Т., “Янги аср авлоди” 2012. Б.380.

bo'lgan Xorazmda endi ichki kurashlar aqj olib ketdi. Shuningdek, Urganch, Kat, Yangi shahar, Xiva, Xazarasi kabi shaharlar va viloyatlar hukmdorlarining markazdan harakatlari kuchayib, ular amalda o'zlarini mustaqil hisoblar edilar. Ayrim shaharlar bir vaqtning o'zida ikkita hukmdor tomonidan (mas, Xivada Po'lat Sulton va Temir Sulton) boshqarildi. O'zaro kurashlar ayniqsa Elbarsxon va Ashnakxon avlodlari o'rtasida kuchayib ketdi. XVI asrda Abdulg'ozim ma'lumotlarga ko'ra, bunday kurashlar natijasida qisqa muddatga xokimiyatdan o'nlab xonlar almashganlar. Natijada markaziy xokimiyat deyarli inqirozga uchragan edi. O'zaro kurashlar vka siyosiy tanglik, o'z navbatida iqtisodiy xayotning ham o'zidan chiqishiga sabab bo'lgan edi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Xojimxon (Xoji Muhammadxon, 1558-1593, 1598-1602 yy.) hukmronligi davrida Xorazmdagi o'zaro urushlarga biroz malham berib tinchlik va osoyishtalik o'rnatildi. Sug'orish va dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo sodiq ishlariga jiddiy e'tibor qaratilib, tashqi savdo hamda munosabatlar rivoj topdi. Xojimxon hukmronligi davrida poytaxt Urganchdan Xivaga¹ ko'chiriladi (ayrim manbalarda XVI asrning 70-yillarida, ayrimlarda esa 90-yillarda). Bunga asosiy sabab Amudaryo o'zanining o'zgarib Kasbiy dengizga oqmay qo'yishi natijasida Urganch va uning atroflaridagi suv tanqisligi bo'lsa, ikkinchidan, Xivaning bu davrda siyosiy va iqtisodiy mavqei ancha kuchaytirilib, asosiy savdo markaziga aylanishi yana bir sabab edi. Poytaxt Xivaga ko'chirilganidan so'ng davlat ham Xiva xonligi deb atala boshlandi.

Bu orada Buxoro hukmdori Abdullaxon II Shayboniylar davlati qayta tiklashga muvafaq bo'lib Xorazm hududlarini yana Shayboniylar tasarufiga olish uchun harakat boshladi. Chunonchi, bir necha yurishlardan so'ng 1593 yilda Xorazm yana Shayboniylar qo'lga o'tdi. Abdullaxondan mag'lubiyatga uchragan Xojimxon Xivani tashlab bir guruh navkarlari bilan Eronga qochdi va shoh Abbos saroyidan panoh topdi. 1598 yilda Abdullaxon II vafot etganidan so'ng Hojimxon shoh Abbosdan ruhsat olib Xorazmga qaytdi. Yangi sharoitda u Urganch bilan

¹ Хиванинг пойтахтга айланганлиги санаси тўғрисида - 1556 й, 1598 й, 1602-1621 йй., 1611-1611 йй., 1610-1612 йй., 1557-1603 йй. каби фикрлар мавжуд

vazirni boshqarishni o'ziga olib Xiva bilan Katni Arab Muhammadxonga, Hazoraspni Isfandiyor sultonga berdi. 1600 yilda Hojimxon Urganch va Vazir qal'alari boshqarishni Turkiyadan kelgan o'g'illariga topshirib, o'zi Xiva kichik o'g'li Arab Muhammadxon bilan qoladi. 1601 yilda Hojimxon 83 yoshida vafot etgach, taxtga uning o'g'li arab Muhammadxon (1602-1623 yy.) o'tirdi.

Arab Muhammadxonning dastlabki hukmronligi yillarida toju-taxt uchun kurashlar davom etdi. Xususan, 1605 yilda nayman urug'i vakillari Elbarsxon avlodiga mansub Xusrav sultonni taxtga o'tkazishni rejalashtiradilar. Ammo, bu fitna oshkor bo'lib, Xusrav sulton qatl ettiladi. Oradan ikki yil o'tgach uyg'ur oqsoqollarining maslahati bilan Solih sulton degan kimsa taxtga davogar bo'ladi, bu isyon ham bostirilib, Solih sulton o'ldirildi.

1616 yilga kelib taxt va mansab talashish mojarolariga Arab Muhammadxonning o'g'illari ham qo'shildilar. Uning Isfandiyorxon, Habash, Elbars, Abdulg'oz, Sharf Muxammad, Xorazmshox va Avg'on sulton ismli 7 nafar o'g'ili bor edi¹. Isfandiyor Hozarafsda, Abdulg'oziy sulton Katda, Habash bilan Elbars sultonlar vazir va Urganch xokimlari etib tayinlangan edilar. Xon farzandlarining har biri taxtga davogar edi. Ayniqsa Habash sulton bilan Elbars sultonlarning harakatlari keskin edi. Ota – bobolar o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayib ohir - oqibatda qonli urushga aylandi. 1621 yilada Toshli Yorilish arig'i (Xiva yaqinida) yonida Arab Muhammadxon va uning o'g'illari Habash hamda Elbars sulton qo'shinlari o'rtasida jang bo'ldi. Isfandiyor va Abdulg'oz sultonlar otasi tomondan turib kurashgan bo'lsalarda, bu jangda Arab Muhammadxon engildi. Arab Muhammadxon avval ko'zlari ko'r qilinib Xivaga jo'natildi. 1623 yilda esa Qum qa'lasida Arab Muxammadxon xotinlari, yosh o'g'illari va ikkita nabirasi bilan o'g'illari Xabash va Elbars sulton tomonidan o'ldirildi. Isfandiyor Eronga garchi unga Makkaga borishga ruhsat bergan bo'lsada, Abdulg'oziy esa Buxoroga qochib, jon saqladilar.

1623 yilda otasining qatl etirilganligini eshitgan Isfandiyorxon Durun shahri, Abdulxon tog'alaridan, turkmanlarning taka, yovmut, sariq urug'laridan qo'shin

¹ Б.Эшов. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Т., “Янги аср авлоди” 2012. Б.383.

to'plab Urganchga yurish boshladi. Urganch yaqinida Isfandiyorxon va Habash – Elbars qo'shinlari o'rtasida 23 kun davom etgan jonga birlashgan aka – ukalar qo'shinlari Isfandiyor qo'shini tomonidan tor – mor etildi. Elbars qo'lga olinib qatl etildi. Habash Sirdaryo bo'ylaridagi Qoraqalpoqlardan najot so'radi. Ammo, u bu erdan boshpana topolmadi va navkarlari bilan qo'lga olinib, Isfandiyorxonga topshirildi hamda ularning barchasi qatl etildi.

1623-1643 yillar davomida Xiva xonligi taxtini Isfandiyorxon boshqardi. O'zining yigirma yillik davlat boshqaruvini Isfandiyorxon turkman qabila boshliqlariga tayanib olib bordi. Xonliklarning yuqori lavozimiga turkmanlar tayinlanib, katta imtiyozlar berildi. Natijada o'zbek urug'larning Isfandiyorxon siyosatiga qarshi noroziligi kuchayib bordi. Isfandiyorxon taxtga o'tirgan yiliyoq nayman urug'larini qirg'in-baron qildi. Xonlikdagi o'zbek urug'lari uch bo'lakka bo'linib, biri – Mang'it, biri – Qozoqlar yurti va yana biri Movarunnaxrga ko'chib ketdi. Oradan ko'p o'tmasdan o'z yurtiga qaytib kelgan o'zbeklar Isfandiyorxon tomonidan qilichdan o'tkazildi.

Isfandiyorxon xonligi davrida ham Xorazmga tinchlik va osoyishtalik o'rnatilmadi. Toj-taxt uchun kurashlar ilgarigi davrlardek davom etdi. Xonlikdagi siyosiy hokimyatini turkmanlar qo'lga berib qo'ygan Isfandiyorxondan norozi bo'lgan kuchlar uni taxtdan chetlatish rejalarini tuzdilar. Bu kuchlar xoning ukasi Abdulg'oz boshchilik qildi. Shuningdek, Amudaryoning Orolga qo'yilish joyida (Orol bo'yi)da istiqomat qilgan o'zbeklar (bu erda o'zbek qo'ng'irotlari katta siyosiy mavqega ega edilar) ning xonlikning siyosiy hayotiga ta'siri kuchayib bordi.

Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, 1643 yilda Orol bo'yi o'zbeklari Abdulg'oz sultonni (1643-1663yy) xon qilib ko'rsatdilar. Xorazm davlatchiligi tarixida yirik davlat arabi va tarixnavis ijodkor sifatida mashhur bo'lgan Abdulg'ozixonning hayot yo'li og'ir kechgan. Abdulg'ozixon otasi Arab Muhammad taxtdan ketgach o'zi taxtga o'tirgunga qadar uzoq yillar (yigirma yildan ko'proq) muhojirlikda yashashga majbur bo'lgan edi. U dastlab Buxorol xukumdori Imomqulixon himoyasida, keyinroq esa, ikki yilga qozoq sultoni

Eshimxon saroyida yashagan. Shundan so'ng Toshkentga kelib bu erda ikki yil yashadi. Toshkentdan Buxoro orqali Xivaga qaytgan Abdug'ozini Isfandiyorxon bosqinchilikda ayblab hibisga orldi va Isfan shahriga Eron shohi huzuriga badarg'a qilindi. Isfanxon yaqinidagi taborak qal'asida o'n yil asirlikda yashagan Abdulg'ozini 1639 yilda o'z nazoratchilari yordamida bandilikdan qochishga muvaffaq bo'ldi. Shundan so'ng u bir yilga yaqin Xurosaning Moxin qishlog'ida, ikki yilga yaqin Mang'ishloq turkmanlari orasida yashaydi. Keyin uni qal'aga xoni o'z o'rdasiga taklif etadi. Bu erda Abdulg'ozini bir yilga yaqin yashagach qal'aga xoni to'plab bergan katta kuch bilan 1643 yilda Urganchga qaytib, Orol bo'yi o'zbeklari yordamida Xiva taxtiga o'tiradi¹.

Akademik B.Ahmedovning yozishicha "Abdulg'ozini hammasi bo'lib yigirma yil atrofida xonlik masnadida o'tirdi. Lekin boshqa hukumdorlarga o'xshab huzur-halovat ko'rmadi. Umri ko'proq urush – talashlarda o'tdi." Manbalarga ko'ra, Abdulg'ozixon haqiqatdan ham butun umrini taxt uchun kurash mangu – jadallarga bag'ishlagan hukumdor bo'lgan. Ammo, u davlat arbobi sifatida ham qobiliyatli shahs bo'lgan. Abdulg'ozixon dastavval xonlikda markazlashgan boshqaruv tizimini mustahkamlashga e'tibor qaratdi. Bu jarayonda u avvalo, turkman yo'lbo'shchilarini boshqaruv ishlaridan chetlashtirdi. Ularning er – suvlari, mol – mulklari musodara qilinib, o'zlari mamlakat ichkarisiga surgun qilindi.

Xonliklardagi barcha lavozimlarga o'zbek urug'ularining boshliqlari qo'yildi. Xiva tarixchisi Munisning ma'lumot berishicha, Abdulg'ozixon ma'muriy islohat o'tkazib, xonlikning boshqaruv tizimini batamom yangitdan tashkil etdi. Xonlikning boshqaruv tizimida o'zbek urug'larining mavqei ortib bordi hamda 360 nafar vakilli xon saroyida turli lavozimlarga ko'tarildi. Xon Yangi amaldorlar orasidan eng obro'li 32 nafarini o'z yoniga oldi. Munis ta'biri bilan aytganda "andoqkim ikki shayx ul-islom, ikki qog'ozini, bir rais Said ota avlodidan, bir mutavalli, bir naqab, to'rt otaliq, to'rt inoq, to'rt mirob, to'rt narvonachi, to'rt, ikki

¹ Норкулов Н., Жўраев Ў. Ўзбекистон тарихи (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми). Т., «Шарқ» 2001, 107 бет.

oqo, ikki arbob, to'rt chig'atoyi inoqi va bir vazirim, holo mehtar derlar va bir qushbegi, bu ikkiyovi o'rinsiz xon huzurida oyoq ustida turadilar¹."

Abdulg'ozixon o'zbek qabilalarini o'troqlashtirish siyosatini olib borish bilan birga, ularni to'rtta guruhga bo'lib, Buxoro bilan chegaradosh bo'lgan doyaxotun (Darg'onota yaqinida) dan tortib, to orolgacha bo'lgan hududlarga joylashtirildi. Shuningdek, Abdulg'ozixon 1645-1650 yillarda Xuroson, Janubiy Turkmaniston, Tajan, Mirg'op, Artek, Turlan, Abdulxon va Mang'ishloq atrofidagi turkmanlar ustiga yurishlar uyushtirdi. Xonlik sarhadlarini kengaytirishga harakat qildi. Xonning topshirig'i bilan Vazir qal'asi aholisi Gurlan qal'asi yaqinida tiklangan Kichik Vazir qishlog'iga ko'chirildi. 1646 yilda Abdulg'ozixonning buyrug'iga binoan Urgancharna arig'i qaziladi va uning yaqinida yangi qal'a bunyod etilib, bu qal'aga yangi Urganch deb nom berildi. Bu erga Ko'hna Urganch aholisining bir qismi ko'chirib keltiriladi. 1648 yilda G'ozibod kanali qazilib, uning yaqinda chegara istehkomi qurildi.

Davlat boshqaruvi va bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullangan Abdulg'ozixon tarixchi tabib sifatida ham bebaho meros qoldirgan. Taxmina 1657 yilda Abdulg'ozir tabobatga oid "Manafi' ul-inson" ("Insonga foydali narsalar") nomli asarini yozgan bo'lsa, 1658-1664 yillarda "Shajarai turk" nomli tarixiy asarlarini yaratdi.

Abdulg'ozixon hali o'zi hayotlik davrida Xiva xonligi taxtini o'g'li Anushaxon (1663-1687yy)ga topshirdi va oradan olti oy o'tibvafot etdi. Anushaxon Xiva xonligi mavqei va qudratini oshirish maqsadida otasining ishlarini davom ettirdi. U Buxoro, Samarqand va Xurosonga bir necha marta harbiy yurishlar uyushtirib xonlik chegaralarini mustahkamlash hamda kengaytirish harakatida bo'ldi. Anushaxonning harbiy yurishlarida jasorat ko'rsatgan turkmanlarga bo'lgan munosabat o'zgardi. Xon turkmanlarga Xorazm vohasi hamda uning atroflariga ko'chib kelishiga ruhsat berdi.

1687 yilda saroy a'yonlari tomonidan fitna uyushtirilib, Anushaxon o'ldiriladi. Taxtga esa uning o'g'li Xudoydod (1687-1688yy) o'tkaziladi. Afsuski

¹ Б.Эшов. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Т., "Янги аср авлоди" 2012. Б.386.

Yangi hukumdorning xonlik faoliyatini uzoq davom etmadi. Og‘ahiy habarlariga ko‘ra, siyosatga bilimdon va xalqa adolatli jon sifatida obro‘ orttira boshlagan. Xudoydodni inisi Arangxon¹ shahid edi. Ammo, Arangxonning (1689-1690yy) hukumronligi uzoq davom etmadi. 1690 yilda u Orol o‘zbeklari bilan bo‘lgan janga halok bo‘ldi.

Arangxon vafotidan so‘ng Buxoro xoni Subhonqulixon Xiva taxtiga o‘z odami Shohniyozni (1690-1707yy) o‘tkazib, amalda Xiva xonligini Buxoro vassal davlatga aylantirdi. Shuning uchun ham Shohniyoz garchi o‘zini xon deb e‘lon qilgan bo‘lsada, o‘z faoliyati davomida Buxoro ta‘siridan qutila olmadi. XVII asrning oxiri XVIII asrning boshlariga kelib, Xiva xonligida siyosiy tarqoqlik, taxt uchun kurashlar va mahalliy hukumdorlarning mustaqillikka intilish harakatlari avj olib ketadi. Viloyatlar hokimlari xonga itoat etmay qo‘yganliklari bois Xiva xoni saroy amaldorlari va mahalliy hukumdorlar qo‘lidagi qo‘g‘irchoqqa aylanib qolgan edi. Shuning uchun ham XVIII asrga oid ayrim yozma manbalarda Xiva xonligi “Besh qal’a” deb atalgan bo‘lsa kerak. Uning tarkibidagi Xazarasp, Xonqa, Urganch, Kat va Shovot qal’alarining markaziy hokimi yashcha tobeligi yuzaki xususiyatga ega edi.

Shohniyoz Buxoro ta‘siridan qutilish hamda markaziy hokimyatini mustahkamlash maqsadida 1703 yilda Rossiya hukumdori Pyotr I ning Xivani Rossiya tarkibiga qo‘shilganligi haqidagi yorlig‘i 1707 yilda Xivqaning Yangi hukumdori Arab Muhammadga (1707-1715yy) topshiriladi. Ammo, Xivada siyosiy kurashlar avj olib turgan sharoitda ushbu yorliq hech kimning e‘tiborini tortmadi. Umuman, Ogahiy ma‘lumotlariga ko‘ra, Arangxon davridan to Sherg‘ozixon davriga qadar Xivada o‘nlab hukumdorlar almashganlar.

Sherg‘ozixon (1715-1728yy)ning hukumronligi davri siyosiy voqealarga boy bo‘ldi. Uning hukumronligi davri o‘zbek, turkman, qoraqalpoq zodagonlarining o‘zboshimchalik harakatlariga qarshi kurash bilan o‘tdi. Bu paytga kelib, Orol bo‘yi o‘zbeklari orasida ham siyosiy vaziyat keskinlashib ketgan edi. Buning asosiy sababi – Orol bo‘yida yashayotgan o‘zbeklarning Qo‘ng‘irot,

¹ Айрим адабиётларда Эрнакхон ёки Эрангхон деб ҳам берилади.

Mang‘it, Xo‘jag‘li va Qipchoq urug‘iga mansub aholisining mustaqillik uchun kurashlari edi. Bu kurashlarga boshchilik qilgan, Mang‘it biylaridan bo‘lgan Sherdalibey Xiva xonligiga itoat etishdan bosh tortib, Orol bo‘yini mustaqil hokimlik deb e‘lon qildi. Sherg‘ozaxon bu erdagi harakatlarni bostirishga harakat qilgan bo‘lsa-da, bu ishining butunlay uddasidan chiqa olmadi.

XVIII asrning boshlariga kelib Rossiya hukumatining Xiva xonligining ichki ishlariga aralashuvi kuchaydi. Rossiya hukumron doiralar O‘rta Osiyo, jumladan Xiva xonligini ham bosib olishni rejalashtira boshlagan edilar. Rossiya hukumdori Pyotr I ning 1717 yilda Xivaga uyushtirgan bekovich Cherkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiyasi ham aynan shu maqsadda tashkil etilgan edi. Ammo, SHerg‘ozixonning hiyla ishlatishi natijasida 6ming kishidan iborat shu ekspeditsiya bir nechada qirib tashlandi. Shunga qaramasdan to O‘rta Osiyo bosib olinmagunicha Chor Rossiyasi hukumatining bunday harakatlari davom etdi.

O‘zaro ichki kurashlar, shahzodalarning o‘zaro mojoralari ko‘plab yig‘iladigan soliqlar xonlikdagi iqtisodiy ahvolni og‘irlashtirib yubordi. Natijada 1728 yil Xivada hokimyatga qarshi qo‘zg‘alon ko‘tarildi. Bu erda xonning zulmiga qarshi qullar bosh ko‘targan edilar. Oqibatda Sherg‘ozixon va uning yaqin mulozimlari o‘ldirildi.

Sherg‘ozixon o‘limidan keyn taxtga o‘tirgan qozoq sultoni Elbarsxon (1728-1740yy) davrida ilk kurashlar davom etib, qo‘shni hududlarga ko‘plpb talonchilik yurishlari uyushtirilib turishi natijasida Xiva xonligining harbiy qudrati zaiflashib bordi. Bu vaziyatdan unumli foydalangan. Eron shohi Nodirshoh 1740 yilda Xiva xonligiga hujum boshladi. Dastavval Xosarasp yonida Xiva qo‘shinlari bilan eroniylar o‘rtasida qattiq jang bo‘ldi. Bu jangda Xiva qo‘shinlari engilib, Xosarasp qal‘asi chekindi. Eroniylar Xazaras qal‘asini uzoq muddat qamal qilib uni egallay olmagach, Xonqa qal‘asiga hujum qildilar. Bu paytda vaziyat o‘zgarib, Elbarsxonga madad berib turgan mang‘it beklari Nodirshoh tomonga o‘tib ketdilar. Oqibatda Elbarsxon engildi va qo‘lga olinib, Nodirshoh tomonidan qatl etildi.

Elbarsxonning mag‘lubiyatidan so‘ng qozoqlarning kichik juz qabilasi boshlig‘i, rus fuqoroligini qabul qilgan Abulxayrxonni Xiva taxtiga o‘tqazdilar.

Abulxayrxon sulh tuzish uchun Nodirshohga noma yuborib rad javobini oldi. Oradan qisqa vaqt o'tib, Nodirshoh Xivaga ikkinchi marta yurish qildi va uni egaddadi. Abulxayrxon esa qozoq dashtlarga qochib ketdi. Bu erga Nodirshoh Mang'it bekларidan bo'lgan Ortiqbek va Xo'rzodbeklarni noib etib tayinladi. Ammo, Orol bo'yi o'zbeklari Nodirshohga itoat etishdan bosh tortib, Abulxayrxonning o'g'li Nuralini o'zlariga xon qilib ko'tardilar. 1741 yilda Xivada eroniyلarga qarshi qo'zg'alon ko'tarilib, Nodirshohning noiblari o'ldirildi, askarlari ham qirib tashlandi. Xivaga Nuralixon xon qilib o'tqazdirildi. Ammo, Nurallixonning xon sifatida siyosiy ta'siri deyarli yo'q edi.

1741 yilda Nodirshoh o'g'li Nasrullo boshchiligida yana Xivaga yurish qilib Nurallixon va uning tarafdorlarini Xivadan haydab yubordi. Taxtga esa Elbarsxonning shg'li Abdulg'ozii II xon qilib o'tqazildi. Ammo, uning hukumronligi ham uzoq cho'zilmadi. 1746 yilda Xivada Mang'it inoqlari tomonidan uyutirilgan fitna Abdulg'ozii II o'ldirildi. Shundan so'ng Nodirshohning roziligi bilan 1747 yilda qozoq sultoni Abdulxayrning ukasi Taibxon (Kaipxon) (1747-1757yy) taxtga o'tkazildi. Manbalarda Taibxonning nihoyatda zolim hukumdor bo'lganligi eslatiladi. U Xiva taxtiga o'tirgach avvalo, hokimyatini inoqlar ta'siridan xolos qilish maqsadida Mang'it inoqlaridan bo'lgan Huzurbekni tarafdorlari bilan qatl ettirildi. Davlatdagi yirik mansablari esa qozoq bekalariga bo'lib berdi. Taibxon aholiga nisbatan jabr-zulmini kuchaytirib, 1756 yilda Xiva aholisidan 40 ming tanga qo'shimcha soliq yig'ib oldi. Bu esa Xivada xalq qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. Taibxon taxtni tashlab qozoq dashtlarga qochib ketdi. Hokimyatni esa qisqa muddat uning ukasi Abdullaxon egalladi.

Xivadagi ichki nizolardan foydalangan Buxoro hukumdori Muhammad Rahimbiy Xivani o'z ta'siriga o'tkazish harakatini boshladi. Shu maqsadda o'z odami Temur G'ozixon (1757-1763yy)ni Xiva taxtiga o'tkazdi. Temur G'ozixon ham Xivada etarli darajada siyosiy barqarorlik o'rnatolmagan bo'lsada, uning hukumronligi davridan boshlab xonlikda o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'idan bo'lgan inoqlar mavqei ortib bordi. Temur G'ozixon bir necha yil hukumronlik qilib, saroy fitnasi natijasida o'ldirildi. Uning o'limidan so'ng Xiva hokimiyati

qozoq sultoni Tavkaxon (1463y.) qo'liga o'tdi. Biroq, oradan ko'p o'tmasdan u ham taxtdan mahrum bo'ldi. 1763 yilda inoq Muhammad Amin amalda Xivadagi oliy darajadagi hukumdorga aylandi.

1.2. Xiva qo'ng'irotlari sulolasining siyosiy tarixi.

1763 yildan boshlab Xivada amalda qo'ng'irotni urug'i inoqlari hokimiyat sifatida boshqa shahsni xon qilib e'lon qilganlar. Qo'ng'irotni sulolasi hukumdorlaridan Muhammad Amin inoq (1763-1790yy.) Xivada hokimiyatni qo'lga olgach saroydagi bir qancha lavozim va amallarga o'ziga sodiq va ishonchli odamlarni tayinladi. Yangi xon shu yo'l bilan xonlikdan muhim siyosiy-ma'muriy, moliyaviy va harbiy hokimiyatni o'z qo'lga olib, ayrim mustaqil beklarni o'ziga itoat ettirdi.

Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, shaharlik savdogarlar, hunarmandlar va din peshvolari o'z hokimiyatini ancha mustahkamlagan Muhammad Amin inoq 1770 yilda turkmanlarhujumini, 1782 yildan Buxoroliklar tajovuzini muvaffaqiyatli qaytardi. Uning hukumronligi davrida Xiva xonligida dehqonchilik, savdo – sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida ma'lum chora – tadbirlar oshirildi. Mahalliy hukumdorlarning o'zaro nizomlari va kurashlariga chek qo'yilishi natijasida xonlikdagi iqtisodiy hayot yaxshilanib bordi.

Muhammad Aminning o'g'li Avaz inoq (1790-1804yy) otasining ishlarini davom ettirgan bo'lsa, Avazning o'g'li Elto'zar inoq 1804 yilda Xiva taxtiga o'tirib, sohta xon Abdulg'oz V haydab yubordi va o'zini rasmiy xon (1804-1806yy) e'lon qildi. Shu tariqa Xivada qo'ng'irotni sulolasi hukumronligi rasmiy qaror topdi. Eltuzarxon xonligi mustaqil hokimlari birlashtirish siyosatini davom ettirdi. Ammo, uning hukumronligi uzoq davom etmadi. 1806 yilda Eltuzarxon buxoroliklar bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. Taxtga uning ukasi Muhammad Rahimxon I o'tirdi.

Muhammad Rahimxon I o'tirdi. (1806-1825yy) markazlashtirish siyosatiga katta e'tibor berib, Xivaxonligini birlashtirish nihoyasiga etkazdi. Xiva tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Rahimxon I xonligidagi vaziyatni to'g'ri tushunib, shunga yarasha davlat siyosati ishlab chiqdi va ushbu siyosatni qat'iyatlik bilan amalga oshirdi. Xususan, uning bevosita tashabbusi bilan xonlikda ma'muriy – siyosiy, iqtisodiy va harbiy islohatlar o'tkazildi.

Dushmanlariga, markazdan qochuvchi kuchlarga nihoyatda beshafqat bo'lgan Muhammad Rahimxon I o'z atrofiga o'zbek, turkman, qozoq va qoraqalpoqlarning nufuzli vakillarini to'plab, ularga amallar va unvonlar berdi. Xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) ta'sis etildi. Ruhoniylar ham alohida e'tibor berilib, Shayxulislom Kengashining a'zosi va xonning eng masahatchisiga aylanadi. Muhammad Rahimxon I ning musulmon ruhoniylarining halq orasidagi mavqeini hisobga olib sayidlardan bo'lgan Sayid Pirimuhammad Xo'janing qiziga uylangani ma'lum.

Bu xon davrida mamlakatning iqtisodiy hayoti jonlanganligi haqida ham ma'lumotlar talaygina. Uning davrida mahsus islohatlar o'tkazilib, soliqlar tarkibiga solindi. Bojxona tashkil etilib, ichki va tashqi savdodan keladigan daromadlar ko'payib bordi.

Muhammad Rahimxon I mamlakat sarhadlarini kengaytirish hamda bo'ysunmas qabilalarni itoat ettirish maqsadida qator harbiy haraktlar olib bordi. Juda qiyinchilik bilan bo'lsa-da, 1811 yilda Orol-Qo'ng'iroq tobe ettirildi. 1812-1813 yillarda Sirdaryo bo'yidagi qozoq va qoraqalpoq ovullariga ketma-ket qo'shin yuborib, ular Xiva xoniga bo'ysundirildi. Shundan so'ng xonlik xududlarini Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlari hisobiga kengaytirish, harakati boshlandi. Ammo, bu masalada Xiva bilan Buxoro o'rtasida boshlanib ketdi. 1817 yilgi Chorjuy qal'asi yaqinidagi birinchi, to'qnashuvda Xiva qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Shunga qaramasdan Muhammad Rahimxon I ning Buxoro xududlariga 1820, 1823, 1824, yillarda talonchilik urushlari qilib turdi¹.

Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlariga harbiy yurishlar Muhammad Rahimxondan keyin taxtga o'tirgan o'g'li Olloqulixon (1825-1842yy) va nabirasi Rahimqulixon (1842-1845yy) davrida ham davom etdi. Olloqulixon Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlarida o'z hukumronligini mustahkamlash uchun ular ustiga besh marataba yurish qildi. 1826 yilda Xiva qo'shinlari SHimoliy Xurosondagi Oqdarband qalasini zabt etdilar. 1828-1829 yillarda bu xududdagi

¹ Б.Эшов. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Т., “Янги аср авлоди” 2012. Б.388.

Jalqon qalasi egallandi. Olloqulixon zamonida Buxoro va Xiva o'rtasida Marv viloyati uchun to'qnashuvlar bo'lib turdi.

Olloqulixon 1842 yilda vafot etgach taxtga uning o'g'li Rahimqulixon (1842-1845yy) o'tirdi. Taxt egallagan Yangi xon ham Janubiy Turkmaniston oralariga hujum boshladi. Bu yurishdan xabar topgan Buxoro amiri Nasrullo 1843 yilda Xiva erlariga hujum qilib, Xozorasini qamal qildi. Ammo, mag'lubiyatga uchrab orqaga chekinishga majbur bo'ldi. Bu orada Rahimqulixon Chorjoyni qamal qilib, uning atrofidagi qishloqlarni taladi. Rahimqulixon Xuroson uchun bo'lgan janglarning birida xalok bo'lgach, taxtga uning ukasi Muhammad Aminxon (1845-1855yy) o'tirdi.

Muhammad Aminxon hukumronligi davrida ham Janubiy Turkmaniston va Xurosonda tinchlik hukum surmay, xonga qarshi isyonlar davom ettdi. Ayniqsa, Marv va Seraxs shaharlarida ko'tarilgan qo'zg'olonlar hokimyatni larzaga keltirdi. Qo'zg'olonchilar Xiva xoniga bo'ysunishdan bosh tortib, ham amaldorlari va soliq yig'uvchilarni tutib qatl qildilar. Og'ahiy ma'lumotlariga ko'ra, Marv va Seraxs uchun o'n marotaba yurish qilgan. Faqatgina 1854 yilda Marv qo'zg'aloni qiyinchilik bilan bostirildi. 1855 yil Seraxs ostonasida Turkmanlar bilan Xiva mamlakatlari o'rtasida bo'lgan jangda. Bu jangda Xiva qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab, Muhammad Aminxon, uning o'n to'rt nafar shahzodalari va saroy amaldorlari fojeali halok bo'ldilar.

1846–1855-yillarda xonlik qilgan Muhammad Amin (Madamin) va Abdullaxon (1855–1864) o'z xonlikning faoliyatlarini turkmanlarga qarshi to'xtovsiz kurashlarda o'tkazadilar va shu urushlarda halokatga uchraydilar. Sayid Muhammad Rahimxon (Feruz) davri (1864–1910) da Xiva xonligi Rossiya bosqinchi to'dalariga qarshi kurash olib borolmaydi va g'oyatda kuchli dushman bilan Gandimiyon – sharmandali sulh bitimiga imzo chekishga majbur bo'ladi. Xiva o'z mustaqilligini yo'qotadi va Rossiyaga qaram bir mamlakatga aylanadi. Ayniqsa Xivaning so'nggi ikki xoni Isfandiyorxon (1910–1918) va Sayid Abdullaxon (1918–1920) davrida xalq ommasi g'oyatda og'ir qismatli va nihoyatda bir-biriga qarama-qarshi onlarni o'z boshidan kechirmoqda edi. Eng

muhiimi ana shu ziddiyatli bu davr va zamon fojiasini tushunib yeta oladigan va unga monand yo‘l tanlaydigan siyosiy va g‘oyaviy yetuk xalq hali shakllanmagan edi. Bu esa o‘lkaning tarixiy fojiasi edi. Bundan suronli va bo‘ronli milliy-ozodlik kurashi yillarida qizil saltanat ilhomchilari – bolshevoylar foydalanib qoladilar.

Xiva xonligida XVII asrda ro‘y bergan madaniy hayotdagi tushkunlik Buxoro xonligidagiga qaraganda kuchliroq bo‘lgan. Bu shunda yaqqol ko‘rinadiki, Xorazmda Abulg‘ozi Bahodirxon xon bo‘lgan davr (1644–1663)da Xorazm tarixini yozib qoldirish masalasi ko‘tarilganda, bu ishni eplay oladigan bir kimsa topilmagan. Bu haqda Abulg‘ozi Bahodirxonning o‘zi quyidagicha hikoya qiladi: «Ammo bizning ota va aqolarimizning beparvoyiligi va Xorazm xalqining beuquvligi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizni Abdullaxonning otalari birlan bizning otalarimizning ayrilgan yeridin to bizga kelguncha tarixlarni bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduk. Hech munosib kishi topmaduk. Zarur bo‘ldi. Ul sababdin o‘zimiz aytduk. Turkning masali turur: «O‘qsuz o‘z kindigini o‘zi kesar», degan»¹.

XVII asrda yashab ijod qilgan Abulg‘ozi Bahodirxon oliy nasab, toj-taxt sohibi, o‘z sulolasining shon-u shuhrati uchun kurash olib borgan, ayni choqda parchalanib ketayotgan Xiva xonligini kuchli markazlashgan davlatga aylantirish uchun ham qurolbilan, ham qalam bilan kurash olib borib, nisbiy osoyishtalik o‘rnatishga erisha olgan hukmdor ham edi. U qoloqlashib qolgan Xorazmni ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan yuqori ko‘tarishga intildi. Hukmdor sifatida bekliklar o‘rtasidagi ziddiyatlar, o‘zaro qirg‘in urushlarga barham berishga qaratilgan tadbirlar ko‘rgan bo‘lsa, ijodkor sifatida «Shajarayi turk», «Shajarayi taroqima» va «Manofe’-ul-inson» («Inson uchun foydali tadbirlar») kabi tarixiy-badiiy hamda tabiblikka oid nodir kitoblar yozadi. Abulg‘ozi Bahodirxonning birinchi yodgorliklar asari «Shajarayi tarokima» yarim afsonaviy xususiyatga ega bo‘lsada, u mahalliy xalqlarning kelib chiqishi va ularning qadimiy tarixiga oid ma’lumotlar beradi.

¹ Юлдошев Ж.,Хасанов С. Жадид тарбияшунослиги асослари. Т., 1994. 5–6-бетлар.

Abulg‘ozi Bahodirxonning ikkinchi qimmatli asari «Shajarayi turk» bo‘lib, uni oxiriga qadar yozib tugata olmadi. Bu asarni Abulg‘ozi vafotidan so‘ng o‘g‘li Anushaxonning topshiri- g‘iga ko‘ra urganchlik mulla va Abulg‘ozining qarindoshi Mahmud Ibn Muhammad Urganjiy yozib poyoniga yetkazadi. Bu taxminan 21 sahifani tashkil etgan qo‘shimcha edi, xolos.

«Shajarayi turk» asari qisqa muqaddima va to‘qqiz bobdan iborat bo‘lib, Odam Atodan to turklarning qadimgi xonlaridan Mo‘g‘ulxongacha kechgan hodisalar va, shunindek Shaybon avlodidan Xorazm mamlakatida podsholik qilganlar zikrini o‘z ichiga oladi.

Abulg‘ozining «Shajarayi turk» asari o‘sha davrning eng noyob asarlar jumlasidandir. Shu bois mojar (Venger) sharqshunosi G.Vamberi: «Jahon uning «Shajarayi turk» nomli tarixiy asari uchun undan minnatdordir degan bo‘lsa, taniqli adabiyotshunos Olim Sharofiddinov: «Abulg‘ozi Bahodirxon binni Arabmuhammad o‘zbek xonlari ishida Boburdan keyingi muhim shaxsdir. Uning madaniyat tarixida qilgan ishlari ulug‘1 deb yuksak baho bergan. Abulg‘ozi Bahodirxonning «Shajarayi turk» va boshqa asarlari nafaqat Sharq tarixchilari, balki butun dunyo ilmiy jamoatchiligining ham diqqat e‘tiborini o‘ziga tortgan, juda ko‘plab jahon xalqlarining tillariga tarjima qilingan. Jumladan «Shajarayi turk» asari rus tilida 1825, 1854 va 1871-yilda Qozon shahrida, «Shajarayi tarokima» asari esa 1898 va 1906-yilda bir necha marotaba nashr etilgan. 1871–1874-yillar orasida P.N. Demezov «Shajarayi turk»ni frantsuz tiliga ag‘daradi. Bu asar Angliya va Amerika xalqlari orasida ham keng tarqalgan¹.

Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zining «Shajarayi turk» asari bilan Xorazm tarixchilik maktabiga asos soladi. Xorazm xalqining buyuk farzandi Abulg‘ozi boshlagan g‘oyatda ulug‘ va mo‘tabar ishni undan keyingi avlodlar, Munis Xorazmiy va Muhammad Rizo Ogahiylar davom ettiradi.

Munis Xorazmiy Shermuhammad Avazboy o‘g‘li (1778-Xiva – 1829) – o‘zbek shoiri, tarixchi, tarjimon, xattot, ma‘rifatparvar inson. Boshlang‘ich ta‘limni

¹ Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи (XVI-XX аср бошлари) Иккинчи китоб Т., «Шарқ» 2003.

Kotda olgan, Xiva madrasalarida o'qigan. 1800-yilda otasi vafot etgach, Xiva xoni Avaz Inoq saroyida farmonnavis kotib lavozimida ishlagan. 1804-yilda Munis o'zining «Devoni Munis»ini yaratadi. 1806-yilda Xiva xoni Eltuzarxon unga Xiva xonlari tarixini yozishni topshiradi. O'sha yili xon fojiali halok bo'ladi. Ammo Munis kitob yozishni davom ettiradi. 1819-yilda u Mirxondning «Ravsat us-safo» («Soflik bog'i») kitobini tarjima qilishni boshlaydi. Bu kitobning faqat birinchi jildini yozib tamomlashga ulguradi, xolos. Xiva tarixini yozib tugata olmay vafot etadi. Uning «Firdavs ul-iqbol» asarini va «Ravzat us-safo» tarjimasini shogirdi va jiyanlari Ogahiy oxiriga yetkazadi. Munis Xorazmiyning «Ornalar» («Orna» – anhor, kanal demakdir) asarida sug'orish inshootlari va yer-suv munosabatlariga doir masalalar aks etgan. Bu risola XVII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi dehqonchilik ijtimoiy munosabatlarni o'rganishda g'oyat ahamiyatlidir. Munis Xorazmiyning asosiy adabiy merosi 1815–1820-yillarda tuzilgan «Munis ul-ushshoq» («Oshiqlar do'sti») devoni g'azal, ruboiy, qit'a va boshqa janrlardan iborat bo'lib, 80 000 dan ziyod misrani o'z ichiga oladi. U bir necha marta nashr qilingan. Munis Xorazmiy she'riyatida xalqchilik, taraqqiyparvarlik g'oyalari keng o'rin olgan. U «So'z» va «Shuaro» kabi she'rlarida ilm-fan, san'at, adabiyotni targ'ib qiladi, olimlar va san'atkorlarni yuksak qadrlaydi, ularni xo'rlagan reaksiya guruh va to'ralarni qoralaydi.

Munis Xorazmiyning 1804-yilda bosilgan «Savodi ta'lim» she'riy risolasida savod chiqarishni yengillatish va husnixat san'atini rivojlantirish muammolari ko'tariladi.

Muhammad Rizo Ogahiy (1809–1874) yetuk shoir, bilimdon tarixchi va mohir tarjimon sifatida fan va tarixda nom qoldiradi. Uning she'riy asarlari «Ta'viz ul-oshiq» («Oshiqlar tumori») devonida to'plangan. Devon Xivada bir necha marta (1905, 1909) tosh bosma (litografiya) usulida nashr qilinadi. Hajmi 18 ming misradan ortiq bo'lgan bu devonda she'riy (nazm) janrining deyarlik hamma turi o'z ifodasini topgan. Ogahiyning she'rlarida xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik buyuk va olijanob insoniy fazilatlar ulug'lanadi, xon va to'ralarning adolatsizligi va xalqqa o'tkazgan jabr-zulmlari, chala mulla ruhoniylarning makr hiylalari

ayovsiz tanqid qilinadi. Shu ma'noda shoirning «Qish» radifli g'azali diqqatga molikdir. Bunda qish fasli tasviri orqali kambag'al, bechora, kulbasiz va yupun oddiy mehnatkash xalqning ahvoriga achinadi, beva-bechoralarga nisbatan himmatsiz, e'tiborsiz va shafqatsiz bo'lgan boylar va davlatmandlardan nafratlanadi.

*Ne bilursan kechalar faqr ahlidin, ne o'tkanin,
Bistari zarrin¹ uza, ey kim qilursan xob² qish.
Ey g'ani³ boqq'il yalanglar holig'a, shukr uchun,
Kim kiyarsan tax-batax qoqim⁴ ila sinjob qish.*

Ogahiy tarixchi olim sifatida ham o'zidan keyin katta meros qoldirgan. «Ta'viz ul-oshiqin» devoni debochasining oxirida u quyidagi tarixiy kitoblarni yozganligini aytadi: «Riyozi ul davla» (1844), «Zubdat ut tavorix» (1846), «Jome' ul-vaqeoti Sultoni» (1857), «Gulshan davlat» (1865), «Iqboli Feruziy» (1872). Bu asarlarida Olloqulixon (1825–1842) dan to Muhammad Rahim II (1865–1872) gacha bo'lgan tarixiy jarayon o'z aksini topgan¹.

Ogahiy mashhur tarjimon ham bo'lgan. U 16 asarni fors-tojik va bir asarni Usmonli turk tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib, madaniyatimiz boyligiga ulkan hissa qo'shadi. Nizomiyni «Haft paykar» («Yetti go'zal») dostoni, shayx Sa'diyni «Guliston» va «Bo'ston» kitoblari, Jomiyni «Yusuf va Zulayho» dostoni, Xiloliyni «Shoh va gado» dostoni ana shular jumlasidandir.

Muhammad Rizo Ogahiy o'zbek adabiyoti va madaniyati taraqqiyotiga barakali ulush qo'shgan vatanparvar ulug' bir zot sifatida o'z o'rniga ega bo'lgan siymodir.

Komil Xorazmiy (1825–1899) Xorazm farzandi, ma'rifatparvar shoir, ajoyib san'atkor, musiqashunos, mohir hattot, tarjimon va davlat arbobidir. Asli xivalik bo'lgan Komil kuchli qobiliyatga ega edi, u arab, fors-tojik tillarini puxta bilgan. Hattotlik va musiqa san'atini yaxshi egallagan Komil Xorazmiyni Xiva xonligi saroyiga ishga taklif etganlar. Dastlab u Sayid Muhammadxon, so'ngra uning

¹ Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи (XVI-XX аср бошлари) Иккинчи китоб Т., «Шарқ» 2003.

o'g'li Muhammad Rahimxon II (Feruz) saroyida avvaliga hattot, so'ngra mirzaboshilik vazifalarini bajaradi. Hattotlik san'atini yoshlarga o'rgatgan Komil Xorazmiy 50 dan ortiq shogirdlarga ustozlik qilgan. Muhammad Panoh, Xudoybergan Muhrkon devon, Muhammad Sharif Tarro devon (atoqli bastakor va musiqachi – Matyusuf Xarrotovning otasi), Muhammad Rasul va boshqalar ana shular jumlasidandir. Rossiya Xorazmni zabt etgach Komil Xorazmiy Feruzshoh saroyida devonbegi lavozimiga tayinlanadi.

Komil Xorazmiy bosmaxona tashkil etishning asoschilaridan biridir. Uning sa'y-harakati va tashkilotchiligida 1870-yilda Muhammad Rahimxonning g'amxo'rligida Xivada bosmaxona tashkil etilgan. Bu bosmaxonada Navoiyning «Xamsa»si birinchi marta nashr qilingan edi.

Komil Xorazmiy badiiy ijod bobida ham katta qobiliyat egasi bo'lgan. Uning g'azallari, muxammas, musaddas, masnaviy, ruboiy, qasida va boshqa janrlarda bitgan asarlari 3680 baytdan iborat bo'lib, maxsus devon shaklida tuzilgan edi. Lekin bu devondan shoirning «Baxri tavil» asari o'rin olmay qolgan. Komil Xorazmiy musiqa ilmining katta bilimdoni va bastakor sifatida Xorazm maqomlariga notalar bitib qog'ozga tushirgan, sozanda va ijrochi ham edi. U kuy bastalagan Xorazmning «Rost» maqomi, «Murabai Komil», «Peshravi Feruz» va boshqa kuylar hamon musiqa shinavandalarining qalblarini to'lqinlantiradi.

Komil Xorazmiy mohir tarjimon sifatida ham nom qozongan. U Husayn Voiz Koshifiyning «Latoif uz-zaroif» asarini fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan¹.

Komil Xorazmiy insonlar hayotida o'zga xalqlarning tili va madaniyatini o'rganish katta ahamiyatga ega ekanligini alohida qayd etgan. Uning tashkilotchiligida 1884-yilda Xorazmda birinchi rus-tuzem maktabi tashkil etilgan.

Komil Xorazmiy ijodiyotini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning asarlarida insonparvarlik, ma'rifatparvarlik ta'lim va tarbiyaning boshqa bir qator g'oya va masalalari bosh mavzu bo'lganligini ko'ramiz. Jumladan, shoir o'zining «Kamol»

¹ Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи (XVI-XX аср бошлари) Иккинчи китоб Т., «Шарқ» 2003.

gʻazalida ilm-maʼrifatni ulugʻlab, ilmi, maʼrifatli va hunarli kishi hamisha el hurmati va ardogʻida boʻlishligini yozadi:

Emas kishiga bu dunyoda mulk-mol kamol,

Husulu ilmu hunar keldi bezavol, kamol.

Kamol bergusidir soʻzga shuhratu taʼsir,

Bu qushga qilgali parvoz parrubol kamol.

Komil Xorazmiy odamlar orasiga yaxshilik urugʻlarini sochadi, mansabga, boylikka berilib kekkaymaslikka chaqiradi, ularni insof-imonli va diyonatli boʻlishga daʼvat etadi. U oʻzining «Ey koʻngil» gʻazalida dunyo adolatsizligi, nohaqligi va teskari ishlaridan faryod chekadi. Agar dunyo pastkash boʻlmasa, nega nokasu nodonni ulugʻlab, shod etib, dononi xor-zoru xafa qiladi, deb xulosa chiqaradi shoir:

Boʻlmasa gardunu sufla doʻsti gardun ey koʻngil,

Nega dunni shod etar, dononi mahzun, ey koʻngul.

Ilm-maʼrifat kuychisi boʻlgan Komil oʻz zamonasida ilm qadriga yetmagan falakni laʼnatlaydi, u ilm olamida Aflotun boʻlsada qadrlanmagan ilm-maʼrifat kishisiga alam bilan achinadi:

Chun falak nodon navozu, xasm donodur, ne sud,

Donish iqlimida boʻlsang gar Falotun, ey koʻngul.

Xullas, Komil Xorazmiy ijodida bosh mavzu inson va insoniylik, uning qadr-qimmatidir. Shoirning hayot va ijod yoʻli yosh avlod kamolotida oʻrnak va namunadir.

Mahtumquli Firogʻiy (1733–1793) Xiva xonligi hududida yashab ijod qilgan qardosh turkman xalqining ulugʻ shoiri va mutafakkiridir. U Turkmanistonning Hojigavshon degan joyida tugʻilgan. Otasi Davlatmamed Ozodiy oʻz davrining mashhur shoirlaridan boʻlgan. Otasi taʼsirida ijodiy ong shuuri erta yaproq yozgan Mahtumquli dastlab ovul maktabida, keyinchalik esa Xiva, Buxoro, Andijon madrasalarida taʼlim oladi. Turli fanlar bilan bir qatorda zargarlik hunarini ham puxta egallaydi. Mahtumquli Ozorbayjon, Eron, Afgʻoniston, Hindiston kabi mamlakatlarni kezib chiqadi. Oʻrta Osiyo, Eron, Ozor oʻlkalari folklorini,

adabiyotini zo‘r ishtiyoq bilan o‘rganadi. Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Firdavsiylar yaratgan badiiy so‘z durdonalaridan bahramand bo‘lgan Mahtumquli kelajak avlodlarga katta adabiy-badiiy meros qoldiradi. Mahtumqulining ijodiy merosi 20 ming misrani tashkil etadi. U sof muhabbatni, mardligu matonatni, ezgulikni, adolat, insof-u diyonatni, imon-u e‘tiqodni kuylagan xalqparvar shoirdir.

Shoir o‘sha davr o‘zaro qirg‘inbarot urushlardan faryod qiladi. U xalqlarni birlik, birodarlik, tinchlik, osoyishtalikka, insof-u diyonatga chorlaydi. Buni Mahtumqulining «Tursa kerakdir» she‘ridan quyida keltirilgan bir necha satrlarda ochiq-oydin ko‘ramiz:

Qardoshlar, kun-kundan battar bo‘lmoqda,

Yil-yildan balolar kelsa kerakdir.

Sharob ichgan, zino qilgan jahonda,

Shunday mashhur bo‘lib tursa kerakdir.

Musulmon qardoshlar, do‘nmang bu yo‘ldan,

Kecharsiz sirotdan-ul nozik qildan,

Dajjol kelar derlar bir necha yildan,

Olamga bir g‘avg‘o solsa kerakdir.

Mahtumquli xalq ruhiyati yo‘g‘rilgan shunday go‘zal ohanglar yaratadiki, bu she‘riy ohanglar umumturkiy adabiyotning betakror namunasi sifatida e‘zozlanmoqda. «U nimadir», «Boshladi», «Go‘zalsan», «Turkmanning», «Ko‘zim tushdi», «Elingni», «Ayrilma» kabi yuzlab she‘rlar shular jumlasidandir. Xullas, Mahtumquli o‘zining o‘tkir satirik nafasi, xalqchil asarlari, qimmatli nasihatnomalari bilan yillar osha xalqning sevimli shoiri bo‘lib kelmoqda.

2-bob Xonlikning qo'shni xonliklar va sharq davlatlari bilan olib borgan o'zaro elchilik va savdo aloqalari.

2.1 Xiva xonligining Buxoro va Qo'qon xonligi bilan olib borgan o'zaro savdo aloqalari.

XIX asrning 30-40 yillarida Xiva xonligida hunarmandchilik sohasida Xiva, Hazorasp, Xonqa, Yangi Urganch, Karmana, Qo'shko'pir, Gazovot, SHavot, Chig'atoy, Ambar, Kat, Toshovuz, Gurlan, Xitoy, Manng'it, Xo'jayli, Qo'ng'iro't, Bag'dod, Bo'ldimsoy, Ilyali, Eshonqipchoq, Qilich Niyozboy, Qo'xna Urganch, Pitnak, Porsu, SHohobod, Mari, Penja va Saraxs degan joylar muhim o'rin egallagan. O'sha vaqtda Xiva shahri ikki qavat devor bilan o'rab olingan: birinchi devorning uzunligi 2 chaqirim, kengligi 200 sarjin bo'lib, uning burchaklarida to'rtta gumbaz qorovulxona qurilgan. Shaharga kirish uchun sharq tomonda Abdanbobo dorvozasi, shimolda-Bachki dorvozasi va g'arbda-Shermuhammadota dorvozasi bo'lgan. 1842 yilda Olloqulixon shaharni kengaytiradi. Shahar atrofidagi devorning aylanma uzunligi 6 chaqirimga etkaziladi. Shaharga kirish uchun Yangi devorga 12 darvoza o'rnatiladi. Natijada Xiva shahrining maydoni 10 desyatinaga, aholining soni 10000 kishiga etadi. Xiva diniy va ilmiy markaz bo'lib, bunda 17 machit, 22 madrasa va xon saroyi o'rnatilgan edi.¹

Shaharliklar Polvon ota arig'i suvidan foydalanilar edilar. Lekin ariqlardan oqadigan suvlarning ifloslanishi sababli turli kasalliklar, ayniqsa rishta kasali tarqalar edi. Xivada va uning atrofidagi erlarda qishloq xo'jaligi ishlari, ayniqsa bog'dorchilik bilan shug'ullanillar edi. Shaharda 260 do'kon, bir qancha karvon saroylar bor edi. Yana savdogarlar uchun cheti devorli katta va uzun timlar mavjud edi.² Paxta, ip, ipak, gilam, kigiz, sholcha, arqon, mis, temir, yog'och, o'tik, non bozorlari bo'lar edi. Shuningdek, kavushdo'zlar, temirchilar, zargarlar, miskarlar, duradgorlar, egarchilar, attorlar, bazzozlar, idish-tavoqlar, choy, sovun-

¹ Норкулов Н., Жўраев Ў. Ўзбекистон тарихи (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми). Т., «Шарк» 2001, 117 бет.

² Ўзбекистон тарихи. Т., «Университет» 1997, 121 бет.

sham, pichoq, charm va shunga o'xshashlar bilan savdo qiladigan alohida-alohida rastalar bo'lgan. Turli meva rastalari ham mavjud edi.

Qo'ng'iro't shahri ham katta o'rinni egallagan. Bu erda 315 savdo do'koni, 7 machit, hammom, karvon saroy va shu kabi pishiq g'ishtdan qurilgan uylar bo'lgan. Shahar atrofida yaxshi mevazor bog'lar bor edi.¹ Gurlan shahrida esa 300 dan ortiq har xil do'konlar ishlab turgan. Xonlikning eng eski shaharlaridan Qo'xna Urganch o'sha davrda xaroba holda bo'lsa ham, lekin o'zining qadimgi yodgorliklari bilan O'rta Osiyoda va butun Sharqda mashhur edi. qo'xna Urganchdan bir chaqirim chetda, xon arig'i bo'yida shaharcha vujudga keldi. Uning atrofi devor bilan o'rab olindi. U obodlasha bordi.

Yangi Urganch 15-20 machit va 2 madrasani, 320 do'kon va bir qancha karvon saroylarni o'z ichiga olgan edi.²

Eng qadimgi shaharlardan Hozorasp Xivadan 57 chaqirim sharq tomonda joylashgan bo'lib, atrofi devor bilan o'ralgan. Shaharda 10 machit, Inoqning arki, pishiq g'ishtdan qurilgan madrasa, 150 do'kon mavjud edi; bu erda ham savdo va hunarmandchilik ancha taraqqiy qilgan edi.³

Xivadan 61 chaqirim shimoli-g'arbdagi Toshovuz Xorazm xoni-Rahimhonning asosiy dam olish joylaridan biri hisoblanardi. Bu erda, katta shaharlardagi kabi, haftada chorshanba va shanba kunlari bozor bo'lib savdogarlar ko'chmanchi aholi bilan savdo qilishga kelar edilar. Ayniqsa, turkman gilamlari, qo'y, jun va shu kabilar ko'p sotilar edi. Shaharning o'zida esa 180 do'kon bo'lgan.

XIX asr o'rtalarida Mari ichki va tashqi savdoda katta rol o'ynab kelar edi. Bu shahar turkmanlar, Eron, Afg'oniston, hindlar va Buxoro bilan savdo aloqalarida muhim ahamiyatga ega edi. Savdo-sotiqda paxta va tamaki asosiy o'rin tutardi. Barcha bozorlarda hunarmandlar ishlab chiqargan olacha, qalami, bo'z, chit, doka, ko'chmanchi aholi tomonidan tayyorlangan chakmonlik, kigiz, sholcha, qop, arqon, gilam va boshqa narsalar sotilgan.

¹ Норкулов Н., Жўраев Ў. Ўзбекистон тарихи (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми). Т., «Шарқ» 2001, 118 бет.

² Норкулов Н., Жўраев Ў. Ўзбекистон тарихи (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми). Т., «Шарқ» 2001, 120 бет.

³ Норкулов Н., Жўраев Ў. Ўзбекистон тарихи (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми). Т., «Шарқ» 2001, 121 бет.

Buxoro amirligining siyosiy va iqtisodiy markazi-Buxoro shahri edi. XIX asrning 40-50- yillarida devor bilan o‘rab olingan shahar maydoni 1739 tanob erni egallagan. Devorning uzunligi 14 chaqirim, balandligi 4 sarjin, qalinligi 2 sarjin edi; unda 130 gumbaz-qorovulxona, Samarqand, Qorako‘z, Imom, Shayx nomli va shunga o‘xshash 11 darvoza bor edi. Buxoro hunarmandchilik taraqqiy qilgan shaharlardan biri edi. Aholining asosiy qismi hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan, qolgan qismi qishloq xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanardi. O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan boshqa rivojlangan shaharlardagi kabi, Buxoro ko‘chalari ham tor (bir yarim-ikki sarjin) va egri-bugri edi. Umuman bu erda 360 ko‘cha va tor ko‘cha bor edi. Shahar markazida katta nomozgoh bo‘lib, bu maydon chekkasida Machit kalon, uning yonida eng katta Mirarab madrasasa va Minorai kalon qad ko‘targan. Shaharga kiriladigan 11 dorvozaning yo‘llari manna shu markaziy maydon orqali o‘tardi. Bozorlar, machit va madrasalar, aholining uylari markazdagi maydon bilan shahar devori o‘rtasiga joylashgan edi. Turkiston o‘lkasining hamma joylaridan, Tatariston, Hindiston, Eron, Qoshqar, Afg‘oniston, Turkiya va boshqa mamlakatlardan Buxoro madrasalariga talabalr kelib o‘qir edilar.

Yuqorida ko‘rsatilgan karvon saroylarining bir qismi amirniki, boshqalari esa xususiy kishilarniki edi. Buxoroda 9 ta tim bor edi. Har bir timning uzunligi yarim chaqiringacha cho‘zilgan bo‘lib, har ikkala tomonidan qator do‘konlar joylashgandi. Timlardagi do‘konlar sotiladigan mol va mahsulotlar turiga qarab o‘rnatilgan edi. Masalan, bir tim tagida faqat temirchilik do‘konlari, boshqa timlar tagida poyabzal do‘konlari, kiyimliklar sotiladigan do‘konlar, qassoblik, zargarlik va boshqa do‘konlar bo‘lar edi. Shahar ichkarisida mol va mahsulot turlariga qarab 50 ta bozor, shahar tashqarisida esa 30 ta bozor bor edi.¹

Buxoroning savdo yo‘li ustida bo‘lishi savdoning tobora rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan edi. Qo‘y bozori juda katta bo‘lib, bu erga xonlikka qarashli joylardan, ayniqsa Shahrisabz va Hisordan ko‘p mayda mol keltirilardi. Buxoroda paxta, ip va ipakdan to‘qilgan gazlamalar, gilam, kigiz, sholcha, to‘nlar, ipakli

¹ Вамбери Херман. Бухоро ёхуд Мавороуннахр тарихи. Т., 1990., 105 – бет.

kiyimliklar, ro‘mollar turli ma‘danlar, xususanlar qorako‘l terilar savdosi kuchaygan edi.

Amir, uning avlodlari va amaldorlar ichki savdo ishlari bilan ham shug‘ullanar edilar. Amir o‘z erlaridan olingan va soliqlar yo‘li bilan to‘plangan g‘allani, o‘z korxonalarida ishlab chiqarilgan turli kiyimliklarni bozorlarda sottirar edi. Shu bilan birga, u o‘z gumashtalari orqali ichki va tashqi savdo ishlari bilan shug‘ullanar edi.

Ma‘lum miqdorda foiz to‘lash sharti bilan amir savdogarlarga qarz pul berar edi. Qarzga beriladigan pullarning miqdori 100 tilladan 1000 tillagacha bo‘lib, amirdan qarz oluvchilar faqat uning belgilab bergan mollari bilan savdo qila olar edilar. Savdogarlar Rossiyadan oltin, kumush va movutlar keltirilib, ichki bazorlarda sotardilar. Bunday savdogarlik, ayniqsa XIX asrning 40-50 yillarida kuchaygandi.¹

Buxoroda hind va yahudiy sudxo‘rlari ham pullarini ijaraga berish yo‘li bilan katta mablag‘ to‘plar edilar. Sudxo‘rlar kosib va dehqonlarga qarz berardilar.

Buxoro savdogarlarining uchinchi guruhi faqat pul yoki mollarni qarzga olish yo‘li bilan savdo qilishgan. Ular puldor boylardan pul yoki mol ichki bozor bahosida qarzga olishardi. Bunday savdogarlar qarzga olingan pul yoki mol uchun ijarachiga 30 foiz qo‘shib to‘lanardi.² Ular o‘z mollarini, asosan, tashqi bozorlarda sotishardi.

XIX asr o‘rtalarida ichki va tashqi savdoning tez sur‘atlar bilan rivojlanishi natijasida savdogarlar orasida tabaqalanish kuchaya bordi, mayda savdogarlar tobora sinib, ular hisobiga yirik savdogarlar soni ko‘paya bordi.

Buxoro amirligida Samarqand shahri ham ichki va tashqi savdoda muhim o‘rin tutardi. SHahar 13 chaqirimli devor bilan o‘ralgan edi. Shaharga Buxoro, Poykand, Hazratishayx, Kalandarxona, So‘zangoron va Xo‘jaahror nomli dorvozalar orqali kirilar edi. Shahar ichkarisidagi er maydoni 500 tonob bo‘lib,

¹ Хамид Зиёев. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари) Т., «Шарқ» 2006. 273 бет.

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Т., «Шарқ» 2000. 44-бет.

uning asosiy qismi mevazor edi.¹ Shaharning g'arbiy tomonidagi bekga qarashli joy devor bilan o'rab olingan edi. Karvon saroylarning bir qismi xususiy kishilarniki bo'lib, qolgan qismi Samarqand beginiki edi. U o'z karvon saroylarini ijaraga qo'yib, katta foyda ko'rardi. Shaharda ikkiga tim, 1085 savdo do'koni, 19 ta kanon mavjud edi. Bu erda 24 madrasa mavjud edi.²

XIX asrning 40-50 yillarida Qarshi shahri ichki va tashqi savdoda Buxorodan so'ng ikkinchi o'rinni egallagan. U, ayniqsa Afg'oniston, Hindiston, Eron bilan savdo-sotiq ishlarida markaziy shaharlardan hisoblanar edi. Karmana, Ziyovuddin, Kataqo'rg'on, Panjakent, Xatirchi, Nurota, Payshanba, Olak, Yangiqo'rg'on, Jizzax, O'ratepa, Chorshanba, Romiton, Qorako'l, Chorjo'y, G'uzor va Hisor kabi shaharlar xonlikning ichki savdosida va hunarmandchiligida muhim ahamiyatga ega edilar.

Har bir o'zbek xonligining o'z puli bor edi. Qo'qon xonligida oltin, kumush va misdan pul zarb qilinardi. Oltin pul o'z qiymati bilan 3 so'm 80 tiyinga yurardi, kumush pul tanga yoki kokon deb nomlanib, 20 tiyinga yurardi. Chaqa pul yarim tiyin, buning 10 tasi bir miri yoki 5 tiyin, 20 tasi esa ikki miri yoki 10 tiyin deb nomlanardi.

Buxoro amirligida ham xuddi shu xildagi pul bo'lib, bir oltinning qiymati 4 so'm, kumush tanga-20 va 25 tiyin hisoblangan; yarim tiyinlik chaqa ham bo'lgan. Buxoro tangalari Hisor bekligi tog'laridan chiqqan oltin va kumushdan zarb qilinardi. Kumush ko'pincha Guljadan keltirilib ishlatilardi.

Xiva xonligida Muhammad Rahimxon I pul chiqariladigan saroy qurdirib, o'z nomida oltin va kumush pullar zarb qildirgan. Kumush pul oq tanga deb atalar edi. Keyin chaqa ham chiqarilgan. Xivada oltin, kumush va miss bo'lmaganligi sababli bu metallar chetdan keltirilgan. XIX asr o'rtalarida xonlikdagi savdo muomilasida tilla pul juda kam edi. Chaqa qora tanga, abaz, shay va yarim shay nomi bilan yuritilar edi. Odatda pullardan xon nomi, ularning chiqqan yili va zarb etilgan shaharlarning nomlari ko'rsatilardi.

¹ Норкулов Н., Жўраев Ў. Ўзбекистон тарихи (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми). Т., «Шарқ» 2001, 124 бет.

² Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т., «Шарқ» 2000., 101-бет.

O'zbek xonliklarida mahalliy pullardan tashqari, rus puli, hind va afg'on rupiyalari, golland chervonlarini uchratish mumkin edi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo xalqlari hayotida pul tobora muhim rol o'ynay boshlagan edi.

XIX asrning 30-50 yillarida Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasidagi savdo ancha qizg'in edi. Buxorodan Xivaga ko'k choy, tamaki, chinni idishlar, ip va shoyidan to'qilgan kiyimliklar, har xil to'nlar, qorako'l teri va shu kabi mollar olib borib sotilardi. Xivadan Buxoro bozorlariga shoyi va ip gazlama, olma, kunjit, ot terisi, Rossiyadan keltirilgan temir va cho'yan asboblari, temir, cho'yan va shunga o'xshash mollar keltirilardi. Xiva bilan Buxoro o'rtasidagi savdoda har yili 1000-1500 tuya karvon qatnar edi.¹ Xivaning Qo'qon bilan savdo aloqalari sust edi. Xivadan Buxoroga borgan savdogarlar qo'qondan kelgan mollarni, Qo'qon savdogarlari esa Xiva mollarini sotib olar edilar. Xiva bilan Qo'qonning o'zaro savdosi Sirdaryoning quyi tomonidan, ayniqsa Oqmachitda, 1814 yildan keyin esa Qo'qon xonligi harbiy baza va chegera shaharchalari sifatida qurdirgan Qo'shqo'rg'on, Chimqo'rg'on, Yangiqo'rg'on tomonlarida bo'lar edi.

Xiva xonligidagi katta shaharlarda, jumladan, Xivada ham hind va yaxudiy sudxo'rlari bor edi. XIX asr o'rtalarida ayrim sudxo'rlar 60 ming so'mgacha kumush pulga ega edi. Ular xonning davlat apparatida, uning ichki va tashqi siyosatida katta rol o'ynar edilar. Hunarmandchilik sanoatining ko'p qismi, katta bog' va er maydonlari shular qo'lida to'plangan edi. Sudxo'rlar pullarini savdogar, hunarmand va dehqonlarga ijaraga berib, juda katta foyda olishar edi. Ular ichki va tashqi savdoda ham hukmronlik qilar edilar. Xiva xonlari xazinada pul tugab qolgan paytlarda shu sudxo'rlardan qarz olib turar edilar. Bunday puldorlarning bir qismi xonning harbiy boshliqlari va uning mansabdorlari bo'lib olgan edi.

XIX asr o'rtalarida ichki va tashqi savdoning tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida savdogarlar orasida tabaqalanish kuchaya bordi, mayda savdogarlar tobora sinib, ular hisobiga yirik savdogarlar soni ko'payib bordi.

¹ Мухаммаджонов А. Р., Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Т., «Фан» 1957, 71-бет.

Missionerlarning da'vati ham, diplomatik kelishuvlar ham, qurol kuchi bilan bo'ysundirishlar xam xalqlarni hayotiy ehtiyoj va foyda almashinuvi, ya'ni savdo-sotiq singari birlashtira olmaydi.

Shu ma'noda O'rta Osiyo xalqlari ham qadimdan uzoq va yaqin mamlakatlar axli bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni olib borganlar. Bu jarayonda karvon yo'llari, xususan, Buyuk ipak yo'li muxim rol o'ynagan. Turli mamlakatlar xamda Sharq va Garbni bog'lagan bu yo'lning Transkontinental axamiyati buyuk geografik kashfiyotlar natijasida tushib ketishiga qaramasdan, uning ko'pgina yo'nalishlari keyingi asrlar mobaynida xam O'rta Osiyoni Xitoy va boshqa mamlakatlar bilan bog'lovchi asosiy kommunikatsiya tarmoqlari vazifasini o'tayvergan. Bu yo'llar o'tgan xududlarning axolisi turli mamlakatlar va xalqlarning urf-odatleri, iqtisodiy va madaniy yutuqlaridan boxabar bo'lib turganlar. Aynan mana shu yo'llar O'rta Osiyo xalqlarining hunarmandchilik, savdo va madaniy hayot borasida orttirgan tajribalarini takomillashuviga, maxalliy aholini tashqi savdo bilan faol ishtirok etishga, savdo soxasida bir qator urf-odat va an'analarning shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Shu jumladan, XVIII-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari shaxarlari axli uzoq va yaqin mamlakatlar, ko'chmanchi dasht bilan o'zaro faol savdo aloqalarini amalga oshirganlar. Bu jarayon Xiva xonligi shaxarlari misolida xam o'z tasdig'ini topdi.

Xiva xonligida Qo'ng'iro't, Xiva, Urganch shaxarlari savdo-sotiq ishlarida markaziy shaxarlar xisoblanar edi. Xonlikning markazi Xiva 17-18 chaqirim aylanma uzunlikdagi devor bilan o'ralgan bo'lib, uning 12 ta darvozasi bor edi. Shaxarda xon saroyi, 9 karvon saroyi, 6 xammom, 12 madrasa va 400 machit mavjud edi.¹ To'rtta katta karvon saroy, asosan chet ellardan, ayniqsa Rossiya, Xindiston, Tibet, Qashg'ar, Afg'oniston, Eron kabi mamlakatlardan kelgan savdogarlarga xizmat ko'rsatar edi.

¹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т., «Шарқ» 2000., 111-бет.

Urganch shaxri 1842-1845 yillarda 15 chaqirim uzunlikdagi aylanma devor bilan o'ralgan bo'lib, uning bozori Xiva bozoriga nisbatan ancha katta edi.

Xonlikning butun tashqi savdosi markazlashgan shaxarlardan biri Qo'ng'irotda amalga oshirilgan. Qo'ng'irotda qadimgi shaxarlardan bo'lib, uning atrofi 27-28 chaqirim uzunlikdagi devor bilan qurshalgan. Ushbu devor asosan mudofaa vazifasini bajargan bo'lib, ayni paytda shaharni ko'rkiga ko'rk ham qo'shib turgan edi. qo'ng'irotni bu darajada katta mavqega ega bo'lishi, savdo yo'lida joylashganida edi. Qo'ng'irotda ichki va tashqi savdoning asosiy markazlaridan xisoblanardi; bu erda pishiq g'ishtdan qilingan 13 ta ikki qavatli katta karvon saroy bo'lganligi ma'lumdir. Bu erga xonlik tasarrufidagi boshqa shaxarlardan paxta, ipak, mevalar, tuz, qurilish yog'ochlari, bo'z, kanop, jun maxsulotlari, charm-teri, buyoqlar va boshqalar keltirilar edi.

Qo'ng'irotda shaxri orqali poytaxt Xivaga Buxoro, Rossiya, Xitoy, Eron va Xindistondan keltirilgan mollar ham olib kelinardi. Jumladan, Qo'ng'irotda orqali Xivaga Buxorodan olib kelingan xindlarning baqqollik mollari, Qobul belbog'lari va sallalari keltirilgan. Bu savdo turi bilan xonlik poytaxtida yashovchi afg'onlar, qobulliklar va xindlar shug'ullanganlar.¹

Xonlikning tashqi va ichki savdosida boshqa shaharlar xam muxim ahamiyatga ega edi. Ushbu shaharlar savdogarlari tashqi savdoda Xitoy, Qoshg'ar eri bilan olib borilgan savdoda o'z faolliklari bilan ajralib turardilar.

Ko'rilayotgan davrda Xiva xonligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi savdo ancha qizg'in edi. Xivadan Buxoro bozorlariga ipak, shoyi kiyimliklar, ayniqsa Xiva gilamlari, choy, xar xil chinni idishlar, turli xil quruq mevalar olib borilardi. Yana Shuningdek, Xiva xonligidan, xususan Qo'ng'irotdan Buxoroga Rossiya mollari: temir, po'lat va cho'yan asboblari olib borilgan. Qo'ng'irotda savdogarlari Buxoro bozorlariga olib borgan bu mollarni ko'proq Xisor, Badaxshon, Maymana va boshqa joylardan kelgan savdogarlarga sotar edilar. Buxorodan Xivaga, paxta,

¹ Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи (XVI-XX аср бошлари) Иккинчи китоб Т., «Шарқ» 2003.

doka, qorako‘l teri, qand, baqqollik mollari, temir va cho‘yan asboblari va shunga o‘xshash narsalar keltirilar edi.

2.2 Xonlikning Eron, Hindiston va Afg'oniston bilan olib borgan savdo va elchilik aloqalari.

Missionerlarning da'vati ham, diplomatik kelishuvlar ham, qurol kuchi bilan bo'ysindirishlar ham xalqlarni hayotiy ehtiyoj va foyda almashinuvi, ya'ni savdo-sotiq singari birlashtira olmaydi.

Shu jihatdan Xorazm o'lkasi qo'shni xalqlar bilan qizg'in savdo aloqalarini olib borib, O'rta Osiyoning yirik savdo markazlari qatori o'z davrida G'arb bilan Sharqning iqtisodiy aloqalarida muhim o'rin tutgan. Xiva karvonsaroylariga turli mamlakatlardan savdogarlar kelgan va ular keltirgan xilma-xil mollarning bir qismi Xivada sotilsa, qolgan qismi tranzit orqali boshqa joylarga tarqalgan. Shuning uchun ham Xorazm o'zining gavjum va obod shaharlari hamda bozorlari bilan tarixda mashhur bo'lgan. 1340 yilda tashrif buyurgan italiyalik sovdogar Balduchi Pegalotti «Osiyoning ichkarisiga kirishning hojati yo'q, zero, Xorazmning poytaxti Urganchda Evropa bozori uchun zarur bo'lgan barcha mollarni xarid qilish mumkin», deb ma'lumot bergan edi.

XVI-XVIII asrlardagi o'zgarib turgan keskin xalqaro vaziyat hamda yangi suv yo'llari mavqeining ortib borishi Sharq mamlakatlarining savdo aloqalarida katta qiyinchiliklarni tug'dirsa-da, ular O'rta Osiyo xonliklarining qo'shni davlatlar bilan olib borgan an'anaviy savdo aloqalarini tamoman to'xtaib qo'ya olmagan.

Xiva xonligining ichki, tashqi va tranzit savdo markazlari hisoblangan Xiva, Xonqa, Hazorasp, yangi Urganch, Gurlan kabi shaharlar Rossiya va ko'pgina SHarq davlatlari singari qo'shni Eron davlati bilan ham qizg'in savdo aloqalarini olib borgan.

Bu savdo aloqalarining tarixi ancha qadimiy bo'lib, an'anaviy tarzda davom etib kelgan. X asrdan boshlab, Xorazm savdogarlari Yaqin va O'rta Sharq, Eron, Iroq mamlakatlariga qatnay boshlaganlar. O'rta asrlarda Erondan Xorazmga mashhur «kazerun» matolari, «minoy» tipidagi koshin, sopol va lyustraviy idishlar, atir-upa, gilam, qishloq xo'jalik mahsulotlari keltirilgan.

Arab sayyohi Ibn Battuta (1333) esdaliklari orqali Xorazmda yuqori tabaqa vakillari orasida iroqi ko‘zalar, chiroyli iroqi shisha idishlardan keng foydalanilganligi va ularning yirik savdogarlar tomonidan ko‘plab keltirilganligini bilib olish mumkin.

XVI asrga oid ma’lumotlar ham Xorazm va Eron aloqalarining an’anaviy tarzda davom etganligini ko‘rsatadi.. A. Jenkenson yurgan bozorlari xaqida yozar ekan, «bu erdagi bozorlarda sotiladigan asosiy mollarning Buxoro yoki Erondan keltirilishi»ni qayd etgan.

1615 yilda Xiva xoni tomonidan rus podshosi saroyiga yuborilgan ko‘pdan-ko‘p sovg‘a – salomlar qatorida «rangli qizilbosh kimxobi, mashad kamoni, rang-barang qizilbosh ipaklar, qizilbosh po‘lat xanjar»larining sanab o‘tilishi XVII asrda ham Erondan Xorazmga ko‘plab hunarmandchilik mahsulotlarining olib kelinganligini ko‘rsatish bilan birga ikki mamlakat xunarmandlari o‘rtasida o‘ziga xos tajriba almashish imkoniyatining mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. O‘zR FA SHI fondida saqlanayotgan № 289 raqamli maktublar to‘plamiga kirgan Buxoro xukmdorining Eronga yozgan maktubida¹ (XVII asr) Yakubiy boshchiligidagi elchilik bilan birga tabib va guruh xunarmandlar, ya’ni «baxmalga naqsh soluvchi mohir tikuvchi, shuhrat qozongan zargar, chini ustasi bo‘lgan kulol va kimyoviy usullarsiz misni oltinga aylantira oladigan usta»ning Eronga yuborilayotganligi ma’lum qilingan. Garchi, bu ma’lumot aynan Xiva xonligiga tegishli bo‘lmasa-da, yuqorida ta’kidlangan o‘zaro ta’sir hamda xalqlarning malaka va tajriba almashinuviga misol bo‘la oladi.

1647 yil Xivada bo‘lga rus savdogari Ivashka «Qizilboshi erlaridan Xivaga savdo-sotiq uchun kelgan xurosonlik savdogarlar» xaqida ma’lumot bergan.

Do‘kon va bozorlardagi mollar tarkibini kuzatar ekanmiz, ikki davlat savdogarlarining xilma-xil mahsulotlar bilan savdo qilganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

¹ Ходжаева Б. С. Сборник документов по истории Средней Азии XVI-XIX вв. Общественные науки в Узбекистане. 1993. № 6 стр. 26-29.

O'rta Osiyo savdogarlarining Erondan murch, imbir kabi hind mollari bilan birga Isfahondan «xud-bof» deb nomlangan ipak matolarni olib kelganliklarini ma'lum qilgan D. Valieva O'rta Osiyoga keltirilgan ipak, shakar, feruza hamda Eron eksportining asosini tashkil etuvchi donasi 30 rupiylik sala uchun ishlatiladigan Kirmonshoh shollari va tamakini sanab o'tadi.¹

Erondan ikkala xonlikka (Buxoro va Xiva) chiqariladigan mollar ichida ipakdan tashqarii otlar ham bo'lgan. Shuningdek, Xiva xonligiga Erondan ayrim dorilar ham keltirilgan.

Rus savdogari D. Rukavkinning «savdo aloqalarini Eron, Buxoro va u erdagi boshqa (qo'shni) hududlar bilan olib borgan» Xiva xonligida «tangalarning Eron va Buxoro oltin, kumushidan zarb etilishi» xaqida bergan ma'lumoti XVIII asrda olib borilgan Xiva-Eron aloqalarini tasdiqlash bilan birga Xorazmga Erondan ko'plab xunarmandchilik mahsulotlari qatorida oltin va kumush xom ashyosining (yashirin yo'l bilan bo'lsa-da) kiritilganligidan dalolat beradi.

Xonlikda o'zining miss tangalaridan tashqarii Buxoroning oltin tangalari, Golland chervonlari bilan birga Eronning riyol deb atalgan kumush pullarining muomalada yuritilganligi to'g'risida ma'lumot an'anaviy davom etib kelgan Xorazm tashqi iqtisodiy aloqalarining miqyosi xaqida tasavvur beradi. Xorazmda savdoni rivojlantirish uchun Buxoro va Erondan keltirilgan kumush tangalarning muomilada bo'lganligini olim O. Berton ham qayd etgan.

Xorazmlik savdogarlar o'z mollarini olib boradigan Isfahon shahri Eronning tashqi savdosida bo'lgani singari Xorazm va Eron savdosida katta o'rin tutgan. Xiva xonligining Rossiya bilan savdo qiluvchi savdogarlari «kolochi», Buxoro, Eron, Afg'oniston bilan savdo qiluvchilari esa «buxorchi» deb atalgan.

O'rta Osiyo savdogarlari Eronga ipak, qorako'l teri, bara qo'zi terisi, kunjut, bug'doy va turkman otlarini olib borishgan. Eron, Afg'oniston, Hindiston, Rossiya kabi davlatlarga O'rta Osiyodan chiqarilgan mahsulotlar tarkibida xorazmlik ustalar tomonidan ishlab chiqarilgan ipak matolari bo'lgan.² Eronlik

¹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т., «Шарқ» 2000., 131-бет.

² История Узбекистана. Ташкент, 1993. Т. III стр. 269.

savdogarlarning o'zlari ham Xivaga keltirgan mollari evaziga Xiva ipagini va u bilan birga zarb qilingan Xiva va rus tangalarini hamda katta miqdorda charm, movut singari rus mollarini olib ketishgan. XVII asr Eronda «abbosiy» puli bilan birga turli qiymatdagi har xil tangalar, jumladan, turk va rus tangalari amal qilgan. Shu bois, rus mollari bilan savdo qilgan Xorazm va Eron savdogarlari yaxshi daromad ko'rishgan.

Xususan, O'rta Osiyo savdogarlari Eronga mahalliy mollarini chiqarishdan tashqari choy, qog'oz, «rus charmi», chit, ro'mol, movut, ko'zgu, billur, chini, temir va miss idishlar, qozon, temi rva sandiq kabi boshqa davlatlardan keltirilgan mahsulotlar hamda rus va o'zlarida zarb qilingan naqd tangalarni reeksport qilganlar.

Shuningdek, o'zlarining o'rtacha sifatli parchalari, ipak va paxta matolarini sotish uchun Orenburga olib borgan mollari ichida turli xildagi matolarning miqdori salmoqli bo'lganligini ko'rsatadi. Xususan, tarixchi Muhammad Kozim Xiva xoni Sherg'ozixon (1714-1728) tomonidan yuborilgan savdo karvonining Mashhad shahriga kelib, turli xildagi mato (qanday mato ekanligi noma'lum) hamda ot va xachirlarni sotganligi xaqida ma'lumot bergan.

Xorazm tarixchilarining ko'plab mato va behisob turli mollar bilan Mashhadga yo'l olgan (1804) ikki yuz kishidan iborat Xorazm savdogarlari to'g'risidagi ma'lumotlari ham etiborga loyiq.

Mashhadda sotilgan ot va xachirlar xaqidagi ma'lumotga kelsak, eng yaxshi zotlari Buxoro va Xivada boqiladigan xachirlarni katta miqdorda sotish uchun Eron, Bag'dod, Damashq va Misrga olib borgan hojilari xaqida boshqa manbalarda ham so'z yuritilgan.

O'rta Osiyo va Eron o'rtasidagi savdoning rivojlanishida Eron orqali Makka va Madinaga yo'l olgan hojilar ham ma'lum darajada rol o'ynagan. Ziyoratga asosan badavlat kishilar chiqqanligi bois, o'z mollari bilan karvonlarga kelib qo'shilgan ziyoratchilar yo'l-yo'lakay turli mamlakatlarda qizg'in savdo olib borishgan.

Tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlar notinch, o'zaro siyosiy munosabatlar barqaror bo'lmagan davrda ham ikki tamon savdogarlarining o'zaro aloqalari to'xtab qolmasdan davom etganligini ko'rsatadi. Jumladan, «Noma-yi olamoro-yi Nodiriy» asarida Nodirshohning Xorazmga yurishi (1740) dan bir oz oldin Xiva xoni Elbarsxonning Xuroson yurishiga tayyorgarligi bilan bog'liq qiziqarli vaziyat xahida ma'lumot berilgan. Ya'ni, bu vaqtda Xorazmda bo'lgan bir qancha Eron savdogarlari vaziyatdan xabar topgacha, o'zbeklar kiyimida qochib Xurosonga kelgan va Xorazm qo'shinining bo'lg'usi xujumidan xukmdorni ogoh qilishgan. Demak, Nodirshohning keng miqyosdagi harbiy yurishlari munosabati bilan mintaqadagi siyosiy vaziyat qaltis bo'lib turgani holda Eron savdogarlarining Xiva xonligida bo'lishi har qanda sharoitda ham xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy almashinuvlar amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Shuningdek, Nodirshohning Xorazmga yurishi chog'ida shu erda bo'lgan ingliz savdogarlari Tomson va Goglarning shoh ruxsati bilan qo'shin askarlariga o'z mollarini muvaffaqiyatli sotibolganliklari savdoning har qanday siyosatdan xoli bo'lgan o'ziga xos qonuniyatlarini ko'rsatadi.

Xorazm va Eron o'rtasidagi savdo ikki davlat savdogarlari uchrashish imkoniyatiga ega bo'lgan boshqa davlat savdo markazlarida ham olib borilgan. Ko'pincha, O'rta Osiyodan Eronga boradigan yo'ldagi xavf-xatar, katta boj to'lovlari hamda janubdagi savdo yo'llari ustida joylashagn mahalliy xukmdorlar tomonidan o'tkaziladigan tazyiqlar O'rta Osiyolik savdogarlarni o'z mollarini ko'plab Eron savdogarlari keladigan shaharlarga olib borishga undagan.

Buxoroda qizg'in savdo olib borgan xorazmlik savdogarlarning u erda maxsus karvonsaroylari bo'lib, ular «urganji karvonsaroylari» deb atalgan. 1694 yilda bu erga 80 ga yaqin rus savdogarlarining kelganligini ma'lum qilgan O. Berton Jo'ybor shayhlari tomonidan barpo etilgan «urganji karvonsaroylari» Eron va Arab davlatlaridan kelgan ko'plab savdogarlarga ham xizmat qilganligini qayd etadi. Keyingi ma'lumotlar XIX asrning 30-yillarida Buxoroda uchta an shunday karvonsaroylar bo'lganligini tasdiqlaydi.

Davlatlararo kelishuvlarda tajribali elchilarning mahorati qanchalik rol o'ynasa, beriladigan sovg'a va xadyalar ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etgan. O'z o'rnida xukmdorlarning bir-birlari bilan «sovg'a-salomlar» almashinishini savdoning bir turi, deb hisoblasa bo'ladi.

«Shajarai turk» asarida Eron shohi Tahmosib I (1524-1587) ning Xiva xoni Bo'chg'axon jiyaniga uylanishi munosabati bilan yuborgan shohona xadyalarining ichida kumush bilan ishlov berilgan to'qqizta xanjar, zarboftdan tikilgan hashamatli chodir to'shaki bilan to'qqiz ot egari va yugani bilan, ming bo'lak kumush ipak sanab o'tilgan.¹

Xorazm xukmdorlari Hoji Muhammadxon, Isfandiyorxon, Abulg'ozixon va boshqa ko'pgina sultonlar davrida Eronga yuborilgan elchilarning shohga munosib sovg'alar bilan murojaat etganligini hisobga olsak, ikki davlatning o'zaro almashinuvi turli-tuman hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari orqali amalga oshirilganligi xahida tasavvur hosil qilish mumkin.

Buxoro Shayboniylariga qarshi kurashda ittifoqchilik qilgan Xorazm sultoni Dinmuhammad (XVI asr) minnatdorchilik tariqasida Eron shohi tomonidan faxriy to'n va yiliga 300 tuman miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlangan, ya'ni shoh unga har yili Sabzavordan 300 Tabriz tumanini yig'ib olish xuquqini bergan. Shuningdek, Xivada Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining barbod bo'lganligi (1718) to'g'risidagi xabarni Isfahonga etkazib kelgan maxsus Xiva choparining Eron xukumati tomonidan 72 chervon bilan taqdirlanishi, shoh Sulton Husaynning Xiva xoniga 2000 tuman pul taqdim qilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar Xiva xonligi xududiga ko'plab Eron pullarining kirib kelish omillarini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, ko'rsatilgan davrda Xiva xonligi va Eron o'rtasidagi savdo aloqalari bevosita badavlat savdogarlarning savdo kelishuvlari orqali ikki davlatning yirik shaharlarida, Shuningdek, qo'shni davlatlarning yirik savdo markazlari hisoblangan shaharlarda amalga oshirilgan.

¹ Абулғозий Баҳодирхон. Шажараи турк Нашрга тайёрловчилар. Қ. Муниров, Қ. Маҳмудов. Тошкент, 1992. 128-бет.

Savdoning alohida ko‘rinishi bo‘lgan sovg‘a-salomlar (peshkash, hadya) orqali ham ikki davlat o‘zaro hunarmandchilik va turli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan almashingan.

Xorazm va Eron o‘rtasidagi savdo yo‘llarining turkman dashti orqali o‘tganligi bu aloqalarda katta qiyinchiliklarga sabab bo‘lgan. Lekin, tarixiy manbalardagi ma’lumotlar har qanday qiyinchilik va muammolar Xorazm va Eron o‘rtasidagi an’anaviy savdo aloqalarini batamom to‘xtatib qo‘ya olmaganligini ko‘rsatadi.

Xiva xonligining Eron bilan savdo aloqalari asosan Mashhad orqali olib borilardi. U erdan turli rangdagi har xil chit va movut kabi mollar keltirib sotilar edi. Xivadan Mashhadga ipak, shoyi gazlama, kunjat, qorako‘l teri, rus mollaridan charm va movut olib borilar edi.

Muhammad Rahimxon Xiva xonligidagi feodal tarqoqlikni tugatib, Xorazm erlarida markazlashgan feodal davlat tuzishga erishdi; u turkman qabilalarining ko‘p qismini, Qoraqalpog‘iston va Amudaryoning quyi oqimida, Orol dengizi sohilida va Sirdaryoning quyi qismidagi qozoqlarni ham qurol kuchi bilan Xivaga bo‘ysindirdi. Rahimxon Qorako‘l va Chorjo‘yni, Amudaryoning yuqori oqimida Buxoroga qarashli erlarni ham bosib olish uchun Buxoroga qarshi, Marining g‘arbiy-janubiy qismida Eronga qarashli erlarni egallab olish uchun Eronga qarshi vaqti-vaqti bilan urushlar olib borar edi. Chunonchi, 1812 yildayoq Muhammad Rahim Eronga qarshi urush boshlagan edi. Qoq jaziramada, uzoq vaqt cho‘lu sahroda yurish qo‘shinlar va ot-tuyalar uchun katta qiyinchiliklar tug‘dirdi, og‘ir ahvolda orqasida askarlar orasida kasalliklar paydo bo‘ldi. Shunga qaramay, Xiva qo‘shinlari Eron chegarasidagi qishloqlarga bostirib kirdi. Shoh Boboxon ko‘p sonli harbiy kuchlari bilan Rahimxonga qarshi yurish qildi. O‘sha vaqtda Xiva askarlari charchab qolganlaridan keyin, ular tezda uylariga qaytib, qishgacha hosilni yig‘ib-terib olishga zo‘r berib intilmoqda edilar. Bu kayfiyatni payqagan Rahimxon ham Eron harbiy kuchlariga qarshi jang qila olmasligini sezib, Xivaga qaytishga buyruq berdi.

Lekin Eron bilan Xiva o'rtasidagi tinchlik munosabatlari uzoq davom etmadi. 1827 yilning iyul oyida Olloqulixon katta harbiy kuch bilan Eronning 6 shaharini va bir qancha qishloqlarini egallab, ularni talab 2 ming kishini asir olib Xivaga qaytdi. U 1829 yilda 40 ming askar bilan yana Eron ustiga yurish boshladi. Mashhur sharqshunos N. Veselovskiyning ma'lumotlariga ko'ra, ana shu Xiva-Eron urushi eng og'ir urush bo'lgan. Xiva qurolli kuchlari Eron chegarasiga etib borishlari bilan vabo kasalini yuqtirib, qirilib ketgan, xon esa faqat 300 askari bilan Xivaga qaytib kelgan. Lekin ular Xiva, Buxoro va butun O'rta Osiyo erlarida vabo tarqalishiga sabab bo'lishgan va ko'p odamlar o'lgan.¹

Xiva xoni 1830 yilda yana Eronga hujum qilib, 1000 oilani asir olib Xivaga qaytdi. Shundan keyin Eron shohi ham katta kuch to'plab, chegaradosh Xiva xonligi erlariga hujum boshladi. Bu qurolli kuchlar qo'shinlari o'rtasida qattiq janglar bo'ldi. Eron bilan Xiva askarlari xujumga o'tganligi sababli jang maydoniga yaqin bo'lgan shahar va qishloqlar aholisi mol-mulki, chorva mollari va oilalari bilan xonlikning ichkarisiga ko'chib ketdi. Buning natijasida ko'pgina qishloq va shaharlar huvillab qoldi.

1837-1839 yillarda Xiva xonligi bilan Eron munosabatlari juda og'irlashdi. 1837 yilda Xiva xoni Eron ustiga qo'shin tortdi va ikki o'rtada shiddatli janglar bo'ldi. Lekin urush uzoqqa cho'zilmadi. Xon Xivaga qaytib, Yangi hujumga tayyorlandi. 1838 yilning yoz oylarida Xiva qo'shinlari Eronga xujum qildilar. 9 iyulda Jamilangar shahri atrofida Eron bilan Xiva qo'shinlari o'rtasida shiddatli jang boshlandi, Xiva qo'shinlari engilib, chekinishga majbur bo'ldi. 1839 yil aprel oyida Xivaga Eron elchilari kelib, ikkala davlat o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni yaxshilash, Eronlik asirlarni o'z Vataniga qaytarish to'g'risida xon bilan muzokaralar olib bordilar. Olloqulixon ham Eronga o'z vakillarini jo'natdi. Ammo saroy xodimlari bu diplomtik vakillarning shoh xuzuriga kirishlariga ruxsat etmaganliklari sababli ular Hirot orqali Xivaga qaytib keldilar.

Bu holni eshitgan Olloqulixon 1839 yil iyun oyida Eron ustiga Yangi yurish boshlash haqida farmon berdi. U tezda 10 ming askar to'plab, o'g'li Rahmonqul

¹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.: Шарқ 2000. Б. 107-108.

va Mehtar Yoqubboy boshchiligida Eronga jo‘natdi. Askarlar Hirot tomonlariga xujum qilib, katta o‘ljalar bilan qaytdilar.

1842 yilda Eron bilan Xiva o‘rtasida yana diplomatik aloqalar boshlanib, ikkala davlat munosabatlarini yaxshilash haqida muzokaralar olib borildi. Lekin bu muzokaralar hech qanday natija bermadi.

Shunday qilib, XIX asrning 50-60 yillarigacha Eron-Xiva munosabatlari eski xoliga qolib, ayrim vaqtlarda har ikkala davlat o‘rtasida urushlar bo‘lib turdi.

O‘zbek xonliklarining jumldan Xiva xonligining Hindiston bilan iqtisodiy va diplomatik munosabatlari uzoq tarixga ega. XVIII asr oxiri va XX asr boshlarida Xiva savdo karvonlari Kalkutta, Kashmir, Astrabod, Mazondaron, Lohur kabi katta savdo-sanoat shaharlari bilan savdo qilar edilar. Hindiston bilan savdo asosan Qobul orqali olib borilardi. Hindistondan xonliklarga kimxob, doka, haydar shoyi, ip gazlamalar, ipakdan va ingliz jun ro‘mollari, rang-barang ipaklar bilan gul tikilgan oq ro‘mollar, murch, shakar, novvot, kiyik shohlari, qog‘oz, xina, zira va boshqa narsalar keltirilardi. Panjobdan Buxoro va Xivaga nil bo‘yog‘i ko‘p miqdorda olib kelinardi. Bu xom ashyo to‘qimachilik va Rossiyaga chiqarish uchun muhim ahamiyatga ega edi. Kashmirdan turli rangdagi har xil ro‘mollar keltirilardi.

Hindistondan ingliz ipakli gazlamalari, Peshovardan Buxoro orqali O‘rta Osiyo erlariga oq va havo rang kiyimliklar, guruch, burunga otadigan tamaki, tuya terisi, shu teridan yasalgan tarozi va missqol torozilar ko‘p olib kelinardi.¹

Hind savdo karvonlarining ko‘pchiligi, Eron savdo karvonlari kabi ingliz kapitalistlarining gumashtalari bo‘lib, ularning ham O‘rta Osiyo bozorlariga keltirib sotadigan mollarining asosiy qismini oltin pulga sotar edilar. Inglizlarning ko‘p yillik shunday xatti-xarakati tufayli o‘lkada oltin pullar, xonliklar xazinalaridagi oltin miqdori tobora kamaya bordi. Bu borada ingliz hukumati o‘ziga xos siyosat qo‘llagan ediki, bu xonliklarning iqtisodiy jihatdan zaiflashtirishni ko‘zlagan edi.

¹ Ходжаева Б. С. Сборник документов по истории Средней Азии XVI-XIX вв. Общественные науки в Узбекистане. 1993. № 6 стр. 27-28.

Xivadan Hindistonga chiqarilgan hunarmandchilik mahsulotlari u erdan Evropa mamlakatlariga tarqalar edi. Shuning uchun ham hunarmandchilik mahsulotlari ichki va tashqi savdoda muhim ahamiyatga ega edi. Xonliklardan yana Hindistonga ipak va ipakli har xil kiyimliklar, echki tiviti, yaxshi otlar olib ketilar edi.

Hindiston bilan o'zbek xonliklari o'rtasida savdo munosabatlarining rivojlanib borishi orqasida Turkistonga sudxo'rlik kapitali kirib kela boshladi. XIX asrning 30-50 yillarida hind sudxo'rlari mablag'ni qarzga berib, katta foyda olar edilar. Sudxo'r hindlarning yana bir guruhi esa ulgurji savdo bilan shug'ullanardi; ular Xiva va boshqa shahar bozorlariga kelgan ba'zi mollarni savdo karvonlaridan ko'tarisiga sotib olib, qimmat bahoda sotar edilar.

Afg'oniston bilan savdo aloqalariga kelsak, o'zbek xonliklarining Afg'oniston bilan aloqasi ko'p asrlik tarixga ega edi. Afg'oniston bilan savdo-sotiq ishlarida Buxoro amirligi muhim o'rin tutardi. Qolgan ikki xonlik savdogarlari Afg'oniston bilan bo'ladigan savdoda Buxoroga kelib shu er orqali o'z savdolarini tashkil etardilar. Jumladan Afg'on savdo karvonlari ham Buxoroga kelib, o'z mollarni Qo'qon va Xiva xonliklari savdogarlariga sotishardi va ular keltirgan turli mollarni sotib olishardi.

XIX asrning birinchi yarmida Afg'onistondan choy, qoraqand, zarchiva, guruch, afg'on miltiqlari, turli qilichlar, xanjar, nayza, tulki terilari, chini idishlar keltirilar edi. Shuningdek, sallalik, belbog'lik mato, tivit va ipakdan to'qilgan xilma-xil ro'mollar olib kelinardi.

Xonliklar bozorlarida doka tez o'tadigan mol bo'lgani uchun Qobuldan har yili 3000-3500 tuyada doka keltirilib, Buxoro bozorlari orqali butun O'rta Osiyoga tarqatilar edi.¹ Yana turli rangdagi ip va ipak gazlama, har xil terilar, qoradori, pista, quruq olhirot va boshqa narsalar keltirilar edi. Xonliklardan Afg'onistonga qorako'l terilari ipak va ipakli kiyimliklar, ayniqsa atlas, bo'z va qalami, hunarmandchilik buyumlari, Rossiyadan keltirilgan tovarlardan turli movut, chit va

¹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.: Шарқ 2000. Б. 112.

surp, har xil temir asboblar, qozon, sandiq, igna, qaychi, pichoq, ustara, miss, oyna, zarin jiyaklar, yaltiroq iplar, qizil bo'yoq vash u kabi narsalar olib borilar edi.

Xullas ko'rilayotgan davrda Xiva xonligi Eron, Hindiston va Afg'oniston davlatlari bilan ham qizg'in savdo va elchilik aloqalarini olib borganlar.

X U L O S A

Ko‘rilayotgan davrda o‘zbek davlatchilik asoslarining zaiflashib, ichki va tashqi siyosatda ilgari zamonlarda erishilgan marralarning, davlat boshqaruvida shakllangan an‘analarning nurab borishi, oxir-oqibatda Rossiya qaramligiga tushib qolish bilan xarakterlidir.

O‘lkada vujudga kelgan uch xonlikning mintaqada yakka hukmronlikka intilib o‘zaro kurashi, avvalombor yurt xukmdorlari va amaldorlari xalqning taqdiri va kelajagi haqida qayg‘urish o‘rniga, o‘z shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo‘yib, jaholat va g‘aflatga berilib ketishi oqibatida biz bugun yashayotgan mintaqa umumbashariy taraqqiyot jarayonlaridan uzilib, rivojlanishdan orqada qolib ketdi.

Biroq bu davrlarda ham oldingi davrlarda bo‘lgani kabi ichki va tashqi siyosatda, tashqi davlatlar bilan o‘zaro aloqalar, savdo-sotiq va elchilik aloqalarida muayyan yutuqlarga ham erishildi, hamda o‘ziga yarasha tajriba ham yaratdiki, bu bugungi kunda mustaqil O‘zbekiston sharoitida ushbu davrni chuqurroq o‘rganishni kerakli xulosa va saboqlar chiqarish talabini qo‘ymoqda.

XVI asr boshlarida tashkil topgan Xiva xonligi mustaqil davlat sifatida 1920 yilga qadar mavjud bo‘lgan ekan, avvalombor xonlik o‘lkada o‘zining mustaqilligini saqlab qolish uchun su‘niy ravishda qo‘shni Buxoro davlati bilan kurashib keldi.

Shuningdek, Xiva xonligi ko‘rilayotgan davrda qo‘shni Sharq mamlakatlari Xitoy, Eron, Hindiston, Turkiya va Afg‘oniston singari davlatlar bilan o‘zaro iqtisodiy, madaniy, savdo-sotiq va elchilik aloqalarini kengaytirishga harakat qilib, har bir davlat bilan ikki tomonlama teng huquqli bo‘lgan aloqalarni yo‘lga qo‘yishga intilgan. Bu ayniqsa o‘zaro savdo-sotiq aloqalarining keng ko‘lamda olib borilishida ko‘rinadi. Bunday savdo aloqalari xonlik ichki va tashqi bozorining kengashiga olib keladi.

Xiva xonligining qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarini XVIII – asrning ikkinchi yarmi XIX asrdagi taxlili shundan dalolat beradiki, xonlikning

qo'shni davlatlar bilan o'zaro iqtisodiy, madaniy savdo-sotiq va elchilik aloqalari Sherg'ozixon, Olloqulixon, Muhammad Rahimxon II lar xukmronligi davrida katta muvaffaqiyatlarga erishilgan.

Xiva xonligi Eron, Hindiston va Turkiya bilan olib borilgan o'zaro aloqalarda katta muvaffaqiyatlarga erishganki, bu tajribalarda bugungi yosh O'zbekiston tashqi aloqalarida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biroq, qo'shni davlatlar bilan olib borilgan ikki tomonlama teng huquqli asosdagi iqtisodiy, madaniy, savdo-sotiq va elchilik aloqalariga Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida chek qo'yildi. Xiva xonligi o'zining davlat suverenitetini yo'qotdi. Endi xonlikning tashqi aloqalarining nazorati to'lig'icha Rossiya nazoratiga o'tdi.

O'zbek xalqi tarixidagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy rivojlanishida halqaro miqyosda katta mavqega erishishda, umuman xar sohadagi yutuqlarda davlatning ahamiyati, ta'siri, o'rni beqiyos bo'lib kelgan. Shu sohalardagi jarayonlarni shakllantiradigan, boshqaradigan ham davlat edi. Buni biz jamiyatimiz har tamonlama yuksalgan Amir Temur davridagi davlatchilikning nufuzi orqali ko'rishimiz mumkin. Va, aksincha, Rossiya bosqini arafasida siyosiy tarqoqlik sharoitida davlat asoslari nihoyatda susayib ketgan edi. Harbiy qudratni zamonaviy asosda to'xtash, iqtisodni mustahkamlash, jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan milliy manfaat yo'lida foydalanishni tashkil qilolmagan siyosatchilar sababli qachonlardir buyuk bo'lgan o'lka zaiflashib, hatto mustamlakaga aylanib qolgan.

Фойдаланган манба ва адабиётлар рўйхати.

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. 7-жилд. Т., «Ўзбекистон» 1999.
2. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т., «Ўзбекистон» 1995.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизлика таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., «Ўзбекистон» 1997.
4. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз маъсулмиз. 9-жилд. Т., «Ўзбекистон» 2001.
5. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. 10-жилд Т., «Ўзбекистон» 2002.
6. Каримов. И.А. Юсак маънавият-енгилмас куч. Тошкент. «Маънавият». 2008.
7. Каримов. И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Т.: Ўзбекистон. 2009.
8. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи Т., «Шарқ» 2000.
9. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар Т., «Ўқитувчи» 1994.
10. Абулғозий Баҳодирхон. Шажараи турк Нашрга тайёрловчилар. Қ. Муниров, Қ. Маҳмудов. Тошкент, 1992.
11. Бобобеков Х.Н. Қўқон тарихи Т., «Фан» 1996.
12. Бабабеков Х.Н. История Каканда. Т., «Фан» 2006.
13. Бабабеков Х.Н. Народные движения в Какандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки (XVIII-XIX в.в) Т., «Фан» 1990.
14. Бабабеков Х.Н. «Восстания Пулатхана» научна исследовательский институт педагогических знаний Узбекистана им Кары Ниязова. Т., 1996
15. Воҳидов Ш.Х. «Звания и должность в Какандском ханстве и Бухарском эмирате» Т., 1996

16. Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги, Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар Т., 1996.
17. Диваев А. Последние дни Худаярхана Т., «Фан» 1986.
18. Зияев Х. Ўрта осий ва Сибирь (XVII-XIX асрлар) Т., «Фан» 1962.
19. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари). Тошкент. «Шарқ». 2006.
20. Записки о Бухарском ханстве (Отчётъ П.И. Демезона и И.В. Виткевича) Масква. 1983.
21. Норқулов Н, Жўраев Ў. Ўзбекистон тарихи. (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми) Т., «Шарқ» 2001.
22. Набиев Р.Н Из истории Кокандского ханства Т., «Фан» 1973.
23. Набиев Р.Н. Уникальнўй источник по истории Какандского Ханстве. Т., 1943.
24. Масалиева О.М. «История Бухарского Хивинского, Какандского ханств англо-американской исторграфии XX века». Диссертация на соискание учёной стонени кандидата исторических наук Т., 1999.
25. Мухтаров А. «О некоторўх неизвестнўх источниках по истории Средней Азии XIX в»Т., 1978.
26. Махмудов Ш. «Қўқон хонлигидаги олий кенгаш», «Қонун ҳимоясида» 2005, № 236-бет.
27. Мирзаалим Мушриф. Қўқон хонлиги тарихи. Нашрга тайёрлаганлар А. Матғозиев, М.Усмонова Т., 1995.
28. Муқминова Р.Г., Бабабекова Ҳ ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи Т., 1994.
29. Мажид Ҳасаний. Юрт бўйнидаги қилич ёки истило. Тошкент «Адолат» 1997.
30. Машарипов Қ. Ю. Хоразмнинг Ўрта Шарқ ва Европа давлатлари савдо-сотиқ марказлари билан тарихий алоқалари (X-XV асрлар). Тар. фан. ном.. Дисс. Автореф. Нукус, 2004;
31. Исақхон Тўра Иброт «Фарғона тарихи» нашрга тайёрловчилар Бабабеков Х., Махмуд Хасаний Т., «Мерос» 1991.

32. Исскустов В. «Какандского-Российские дипломатические отношения в историографии второй половины XX века» Т., 2003.
33. Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Туркистон Россия босқини даврида. Андижон 1995.
34. Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи (XVI-XX аср бошлари) Иккинчи китоб Т., «Шарқ» 2003.
35. Шариф Юсупов. Буни умр дерлар. «Жамият ва бошқарув» 2002, 1-сон.
36. Гулямов Х. Г. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством в XVIII веке-Т., 1992;
37. С. Хошимов Туркистоннинг дипломатик алоқалари тарихидан «Фан турмуш» 1998. 2-сон, 22-23 бетлар.
38. Ўзбекистон тарихи Т., «Университет» 1997.
39. Ўзбекистон тарихи (Олий ўқув юртлирининг номутахассис факультетлари учун дарслик) Т., «Янги аср авлоди» 2003.
40. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида Т., «Шарқ» 2000.
41. Ўзбекистон тарихи: қисқача маълумотнома. Т., «Шарқ» 2000.
42. Ўзбекистон давлатчилиги тарихий очерклари. Т., «Шарқ» 2001.
43. Ўзбекистон халқлари тарихи 2-жилд. Т., «Фан» 1993.
44. Ўзбекистон халқлари тарихи 1-2 том. Академик А.Асқаров таҳрири остида. 1992.
45. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-8 жилдлар Т. ЎзМЭ. Т. 2000-2004.
46. Эгамбердиев А, Амирсқов А. История Какандского ханства. Библиографический указатель с иллюстрациями XVIII век-1876 г. Т., 2007.
47. Вамбери Херман. Бухоро ёхуд Мавороуннахр тарихи. Т., 1990.,
48. Машарипов Қ. Ю. Хоразмнинг Ўрта Шарқ ва Европа давлатлари савдо-сотиқ марказлари билан тарихий алоқалари (X-XV асрлар). Тарих фанлари номзоди... Дис. Автореф. Нукус, 2004.
49. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. Тошкент, 1993.

50. Ходжаева Б. С. Сборник документов по истории Средней Азии XVI-XIX вв. Общественные науки в Узбекистане. 1993. № 6
51. Б.Эшов. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Т., “Янги аср авлоди” 2012. Б.555.
52. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Xoshimov S., Ubaydullayev O. Vatan tarixi (Ikkinchi kitob) Toshkent: SHARQ, 2016.-Б.366.